

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK

BO'RIEV RUSLAN MUSTANOVICH

**JANUBIY TOJIKISTON JEZ DAVRI
ARXELOGIYASI
(TOSH DAVRI MISOLIDA)**

5A 220206-Arxeologiya mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTASIYA**

**Dissertasiya ish ko'rib chiqildi va
himoyaga ruxsat berildi.**

«Arxeologiya» kafedrasi mudiri:

t.f.n. Djurakulova D.M. _____

Ilmiy rahbar:

prof. Djurakulov M.J. _____

MO'

SAMARQAND – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-11
-------------	------

I-BOB. ZARAFSHON VODIYSINING ENEOLIT VA BRONZA DAVRI YODGORLIKLARI XUSUSIYATLARI.

1.1 Zarafshon vodiysi ibtidoiy urug'-jamoalarining o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.....	12-17
1.2. Yuqori Zarafshonda qadimgi dehqonchilik madaniyati qabilalari.....	17-23

II-BOB. QADIMGI DEHQONCHILIK MADANIYATI YODGORLIKLARI VA ULARNING DAVRIY SANASI

2.1.O'troq dehqonchilik yodgorliklari va Chorvador qabilalar madaniyati yodgorliklari va ularning davriy sanasi.....	24-31
2.2.Turli xil etnik guruhlarining madaniy aloqalari asosida tarkib topgan yodgorliklar va ularning davriy sanasi.....	31-40

III-BOB. BRONZA DAVRI JAMOALARINING DAFN MAROSIMLARI VA ULARNI EVOLYUSIYASI.

3.1. O'troq dehqonchilik madaniyati jamoalarida dafn marosimlari va ularning evolyusiyasi.....	41-42
3.2. Chorvador qabilalar madaniyati jamoalarida dafn marosimlari va ularning xususiyatlari.....	43-58
XULOSA.....	59-63
Foydalanilgan adabiyotlar.....	64-69
Ilova	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: Ota-bobolarimizdan qolgan merosni o'rganish, ularning urf-odatlarini, udumlarini tiklash – bu tarixni tiklash demakdir. Faqat uni xolislik bilan asl xolicha o'rganish, tahlil qilish o'rganilayotgan davr haqida aniq va to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Istiqloq bergan buyuk ne'matlardan biri ham tariximizni, milliy qadriyatlarimizni, o'zligimizni chuqur o'rganish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Xalqimiz orasida tariximizni bilishga bo'lgan qiziqishning keskin ortishi tufayli, ajdodlarimizning qadim urf-odatlarini, diniy e'tiqodi, madaniy, ma'naviy merosini o'rganish tarix ilmining dolzarb masalasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Shimoliy Baxtriya hududiy jihatdan janubiy O'zbekiston va janubiy-g'arbiy Tojikiston viloyatlarini o'z ichiga oladi. So'nggi bronza davrida bu hududlar kelib chiqishi jihatidan har xil bo'lgan uchta yirik tarixiy va etnomadaniy birliklarning (Sopolli madaniyati, Bishkent-Vaxsh madaniyati va Andronova madaniyati qabilalari) aloqa maydoniga aylanadi. Uning O'zbekiston qismida Sopollitepa, Jarqo'ton, Ko'zali, Mo'lali, Bo'ston, Kuchuktepa, Qiziltepa kabi o'troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklari o'rganilgan. Ular qadimgi qishloqlar, ilk shahar harobalari, qadimgi qabriston yodgorliklari ko'rinishida bizgacha yetib kelgan. Hozirgacha o'sha davr o'troq aholisining har xil nuqtalarda ikki mingdan ortiq qabrlari ochilgan. Ularda aholining etnomadaniy hayoti, dafn marosimlaridagi turli xil urf-odatlarini va diniy e'tiqodi o'z aksini topgan.

Shimoliy Baxtriyaning Tojikiston qismi ko'proq dasht qabilalari xo'jalik hayotiga mos tabiiy-Geografik qulayliklarga ega bo'lganligi sababli, bu hududda chorvador urug' jamoalarining yodgorliklari ko'proq o'rganilgan. Masalan, Vaxsh va Qizilsuv havzalarida Bishkent-Vaxsh madaniyatiga tegishli ilk Tulxor, Aruktau, Oyko'l, Jarko'l, Makoni-Mor, Bishkent I,II,III, Tigrovaya Balka, Borbat, Gelot, Guliston, Obkux, Kangurtut, Isanboy kabi qabristonlar va Toshguzar manzilgohi topib o'rganilgan.

Shu bilan birga Sopolli madaniyatining so'nggi Mo'lali va Bo'ston bosqichlarida qadimgi dehqon jamoalarining ekologik, demografik va iqtisodiy

xo'jalik zaruriyati tufayli Janubiy Tojikiston hududlariga kirib borishi kuzatiladi. Ular Janubiy Tojikistonning dehqonchilik va chorvachilikka qulay uch vohasining (Hisor vohasi, Vaxsh daryosining o'rta oqimi va Tairsuv daryosining yuqori oqimi hamda Parxar-Kulob vodiysi) tog' oldi hududlariga joylashadilar. Bu tipdagi yodgorliklarga Tandir-yo'l, Nurek, Zarkamar, Qora pichoq, Kangurtut, Xo'ja G'oyib, Parxar, Qizlar qal'a kabi qabristonlarni kiritish mumkin.

Janubiy-g'arbiy Tojikistonning bir necha joylarida, jumladan Kangurtut, Teguzak, Daxana, Baraki-Kurug kabi manzilgohlar uchratilganki, ularning madaniy qatlamlarida Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlari sopol buyumlari bilan shimoliy dasht qabilalari (andronova) madaniyati sopollari birgalikda uchraydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qadimgi Baqtriya bronza davrida sug'orma Dehqonchilik sivilizasiyalarining dasht qabilalari bilan bevosita madaniy aloqa ko'prigiga aylangan va bu zaminda ilk davlatchilik asoslarining erta shakllanishiga olib Kelgan. Ayniqsa, Shimoliy Baqtriya hududlarida olib borilgan izlanishlar va ularning natijalari mil. avv. II-ming yillikning uchinchi chorak oxiri va to'rtinchi choragidan boshlab, Shimoliy Baqtriya o'troq dehqonchilik jamoalari bilan cho'l mintaqalari chorvador jamoalarining etnomadaniy uchrashuv, bir-birlari bilan qorishuv, etnik jihatdan aralashuv maydoniga aylanadi¹. Bu xilma-xil etnomadaniy manzara Shimoliy Baqtriya bronza davri qabilalarining dafn marosimlari va shakllanib borayotgan diniy e'tiqodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shimoliy dasht qabilalarining (Andronova madaniyati) izlari Xisor vodiysida Qumsoy, Xovalin rayonida Tuyun qabristoni, Vaxsh daryosining yuqori oqimida Kirov nomli sovxoz hududidan topilgan manzilgoh, Sharqiy Pomirdan va Bishkent-Vaxsh madaniyatiga Tegishli Toshguzar manzilgohi misolida o'rganilgan. Bundan tashqari Jarqo'tondan, Bo'ston qabristoni²dan ularga Tegishli sopol parchalari va boshqa ashyoviy dalillar topilgan.

¹ Аскарлов А. Степной компонент в оседлых комплексах Бактрии и вопросы его интерпретации // "Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций". Тез. докл. Советско-французского симпозиума по археологии Центральной Азии и соседних регионов. Алма-Ата, 1987. – Алма-Ата, 1989. – С. 57-58.

² Ўша жойда.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Janubiy Tojikiston mintakasidan talaygina bronza davri yodgorliklari topilgan. Ular bronza davri o'troq va chorvador qabilalarning etnografik turmush tarzi haqida noyob ma'lumotlar beruvchi arxeologik yodgorliklar bo'lib, ularning davriy sanalari, aholisining iqtisodiy xo'jalik asoslari, etnik jihatdan qaysi bir arxeologik madaniyatlarga tegishli ekanligi ilmiy tahlil etilgan. Demak, tadqiqotning manbaviy asosi Janubiy Tojikistonning bronza davriga tegishli yodgorliklar va qabristonlari va ularni qazish jarayonlarida uchratilgan tegishli obyektlar va artefaktlardir.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi: Janubiy Tojikistonning tadqiqotimiz bilan bog'liq hududlarida bronza davriga tegishli arxeologik yodgorliklar juda ko'p bo'lib, ular dehqon jamoalari va chorvador qabilalari madaniyatiga tegishlidir.

Mintaqada o'rganilgan eneolit va ilk bronza davrining noyob yodgorligi Sarazm bo'lib, uning tadqiqotchisi arxeolog A.Isoqovning yozishicha, bu joyda hayot 1,5 ming yil davom etgan. Shu davrda sarazmliklar hayotida qator tub ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy o'zgarishlar yuz berib, ularni 4 ta xronologik davrlarga bo'lish mumkin³.

Sarazmda hunarmandchilikning qator sohalari, jumladan, kulolchilik va to'qimachilik rivojlanadi. Bu davr uchun xarakterli texnologik kashfiyot – kulolchilik charxida idish yasash paydo bo'ladi. Toshidan mehnat qurollari ishlab chiqarish professional xarakterga ega. Qimmatbaho toshlardan turli xil taqinchoqlar, tumor va muhrlar yasash ham professional yuksaklikka ko'tarilgan.

Ammo sobiq sovet davri arxeologik adabiyotida Zarafshon vodiysida ilk urbanistik jarayonlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan Sarazm madaniyatining imkoniyatlari, Sarazmning tog' kon sanoati bilan bog'liq jihatlari, bu maskanning aynan vodiyning ma'dan konlari bilan bog'liq jihatlari ochilmay qolgan. Sarazmda ilk shahar madaniyatining inqirozi, ularning chorvador oriyalar bilan munosabatining murakkablashishi sabablari ko'rsatilmagan. Sarazm madaniyati xronologiyasida ham anchagina bahsli tomonlar mavjud. Ular haqida dissertasiyaning tegishli boblarida fikr-mulohazalar yuritilgan.

³ Исаков А. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Заравшанской долины. Душанбе-1991.

Janubiy Tojikistonda tadqiqot ishlarining boshlanishiga ilk bor P.I.Smolichev tomonidan Dushanbe shahri yaqinidan topilgan bronza davriga oid dastlabki qabr va M.M. Dyakonov kushonlar davri qabristonini o'rganish vaqtida uchratgan qabrning topilishi⁴ sabab bo'ladi.

Tojikiston hududida bronza davri qabilalarining yodgorliklarini muntazam ravishda o'rganish 1955-59 yillarda A.M. Mandelshtam tomonidan boshlanadi. U Bishkent vodiysida mozor-qo'rg'onlar ustida qazishmalar olib borib, ular orasida bir guruh qabrlar bronza davriga tegishli ekanligini aniqlaydi. A.M.Mandelshtam monografiyasida ular ilk Tulxor va Aruktau qabristonlari nomlari ostida berilgan. Ushbu qabristonlarda marhumlar to'rt xil usulda ko'milgan bo'lib, bular: 1) qabrlarda skeletlar g'ujanak holatda; 2) kremasiya qilingan suyak parchalari sochilgan holatda; 3) suyaklar etdan tozalangan holatda; 4) kenotaf ya'ni skelet o'rni bo'sh bo'lib, marhum ruhiga atab qo'yilgan sopol idishlar esa, o'z o'rnida saqlangan holda uchratilgan. Arxeologik materiallarning tahlili asosida u bu yodgorliklar majmuasini Bishkent madaniyati, deb atab, uning yil sanasini miloddan avvalgi XIII-IX asrlar bilan belgilaydi⁵.

1960 yillardan B.A. Litvinskiy Vaxsh va Qizilsuv daryolarining etaklarida qidiruv-tadqiqot izlanishlarini olib borib, Vaxsh 1, Tigrovaya Balka, Oyko'l, Jarko'l va Makoni-mor kabi bronza davri qabristonlarini topadi va ularda keng ko'lamli qazishmalar o'tkazilib, 260 dan ortiq qabrlar ochib o'rganiladi. Tadqiqot natijalarida B.A.Litvinskiy chorvador jamoalarining yangi, Vaxsh madaniyatini kashf etishga muvaffaq bo'ladi⁶. Bu yodgorliklar ichida eng kattasi Tigrovaya Balka bo'lib, u yerdagi 130 ta qo'rg'ondan 1964-1967 yillarda 116 tasi ochib o'rganilgan. O'rganilgan qabrlarning 29,2% Kenotaf mozorlardan iborat ekanligi aniqlangan. Oyko'l qabristonida 52 ta qabrdan 34,6 %, Vaxsh I qabristonida 40 ta qabrdan 38,5%, Jarko'l qabristonida 13 ta qabrdan 14,3%, Makoni-morda esa 40 ta qabrdan 14,3% kenotaf qabrlar ekanligi aniqlangan. Sopol majmuasida kulolchilik

⁴ Дьяконов М.М. Работы Кафирниганского отряда // МИА. – Вып. 15. – М. – Л., 1950. – С. 157-162.

⁵ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в южном Таджикистане. МИА, – № 145, – Ленинград, Наука. 1968.

⁶ Литвинский Б.А. Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов). Индия в древности. Москва, 1964.; Археологические открытия в Таджикистане за годы советской власти и некоторые проблемы древней истории Средней Азии. ВДИ № 4, 1967.

charxida ishlangan sopollar uchratiladi. Masalan, Makoni-morda ular 29,4% ni tashkil etadi⁷. Vaxsh vodiysining Qizilsuv daryosi havzasida Gelot, Guliston, Obkux qabristonlari (Piyankova, Vinogradova, 1998 c. 115-144), shu bilan birga, Tairsuv daryosi sohilida Vaxsh madaniyatiga oid Toshguzar manzilgohi⁸ topib o'rganilgan.

Vaxsh madaniyati sopol idishlar majmuasi deyarli barcha tiplari amalda Shimoliy Afg'oniston dehqon jamoalari yodgorliklarini eslatadi. Shu boisdan, B.A.Litvinskiy va uning izidan borgan L.T.Pyankova Vaxsh madaniyati sohiblarining tarixiy ildizini qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan bog'laydilar⁹.

B.A.Litvinskiy rahbarligidagi Janubiy Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi 1970 yillarda Bishkent vohasida so'nggi bronza davrining Bishkent I,II,III obyektlarida 50 ga yaqin mozor-qo'rg'onlarda qazishmalar o'tkazadi¹⁰. Muzorlardagi ashyoviy dalillar bir tomondan Ilk Tulxor materiallarini eslatsa, ikkinchi tomondan Vaxsh madaniyati an'alariga tortadi. Bishkent aholisining shimoliy dasht chorvadorlari bilan ham aloqalari bo'lganligini eslatuvchi jihatlarni ham uchratish mumkin.

1974 yilda Vaxsh daryosining chap sohilida Nurek suv ombori hududida L.T.Pyankova Sopolli madaniyatining so'nggi bosqichlariga tegishli Nurek (tuproq qurilmasidan iborat) qabristonini uchratadi va u yerdan 14 ta qabrni qazishga muvaffaq bo'ladi¹¹. Shu yillarda Janubiy Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi (JTAE) Regar tumanida dehqon jamoalarining Tandir-yo'l qabristonini ochadilar. N.M.Vinogradova Xisor vodiysida o'troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklarini qazish ishlarini davom ettirib, Qora-Pichoq qabristonida 1 ta (Vinogradova,

⁷ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана (по материалам могильника эпохи бронзы «Тигровая Балка»). – Душанбе, 1989. – С.24-25.

⁸ Виноградова Н.М. Первое поселения бешкентско-вахшской культуры на юге Таджикистане // «Древность историческое значение и специфика источника» тез.док. конференции, посвященной памяти Э.Р.Грантовского. – М., 1996. – С. 32-34; Ўша муаллиф. Поселение эпохи поздней бронзы – Ташгузар в Южном Таджикистане // «Древние цивилизации Евразии». – М., 2001. – С. 142.

⁹ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Бактрии (о вахшской и бишкентской культурах) // Культура первобытной эпохи Таджикистана (от мезолита до бронзы). Тез.док. – Душанбе, «Дониш». 1982. – С. 49.

¹⁰ Литвинский Б.А., Зеймал Т.И., Медведская И.Н. Отчет о работах Южно-Таджикистанской археологической экспедиции в 1973 // АРТ. – Вып. XIII. – Душанбе, 1977. – С. 76-92.

¹¹ Пьянкова Л.Т. Нурекский могильник эпохи бронзы // АО, 1974. – Москва, 1975. – С. 542-543; Ўша муаллиф. Отчет о работе Нурекского археологического отряда // АРТ. – Вып. XIV. – Душанбе. 1979. – С. 78-92;

Pyankova, 1983), Tandir-yo'l va Zarkamar qabristonlarida 40 ga yaqin mozorlarni o'rganadilar. Bundan tashqari Tairsuv daryosi havzasida Kangurtut manzilgohi va qabristonida ham qazishmalar olib boradilar. JTAE ning Qizilsuv otryadi 1996 yilda Xo'ja G'oyib, Parxar qabristonlarida izlanishlar olib boradilar. Tadqiqotchilarning tahliliga ko'ra, bu yodgorliklarning tarixiy ildizlari Sopolli madaniyatining so'nggi bosqichlariga borib taqaladi, ya'ni Mo'lali bosqichi davrida Jarqo'ton yoki Dashlidan shimoliy-sharqiy hududlar tomon yangi ekin maydonlari qidirib ko'chib kelgan guruhlar migrasiyasi bilan bog'laydilar.

Miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy tomonidan, Tog'li Oltoydan to Sirdaryoning quyi havzalarigacha bo'lgan hududlarda istiqomat qilgan chorvador Andronova qabilalari O'rta Osiyo hududlariga kirib Keladilar. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyoda ular kirib bormagan biror viloyat qolmagan¹². Ularning bir qismi Shimoliy Baqtriya hududlariga ham kirib Keladilar. Masalan, ularning izlari Janubiy Tojikistonda o'rganilgan Kangurtut, Teguzak, Daxana, Baraki-Kurug, Karimberdi yodgorliklarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hatto Janubiy Tojikistonda Andronova madaniyati jamoalarining Qumsoy va Tuyun qabristonlari tarkib topgan¹³. Ularga tegishli manzilgoh Vaxsh daryosining yuqori terrasasida Kirov nomli sovxoz hududidan, bu madaniyatga tegishli yolg'iz qabrlar Jarqo'tondan, Dangara shahri yaqinidan, Sharqiy Pomirdan, andronova sopol parchalari Jarqo'tonning yuqori qatlamida, Bo'ston VI qabrlari, Tutkaul va Say-Sayod neolit davri manzilgohlarining yuqori qatlamida, Bishkent-Vaxsh madaniyatiga tegishli Toshguzar manzilgohida, Vaxsh daryosi chap sohilida, Qora Bo'ri atroflarida uchratilgan. Tojikiston hududi bronza davri yodgorliklarini o'rgangan N.M. Vinogradova o'z asarida Andronova madaniyati qabilalariga tegishli manzilgoh va qabristonlar haqida ma'lumot beradi¹⁴.

¹² Аскарлов А. Памятники андроновской культуры в низовьях Зарафшана // ИМКУ. – Вып 3. – Ташкент, 1962. – С. 28-41.

¹³ Виноградова Н.М. Исследования контактов земледельческого и степного населения на юге Средней Азии (Южный Таджикистан) в эпоху поздней бронзы // «Археология, палеоэкология и палеодемография Евразии». – Москва, 2000. – С. 105.

¹⁴ Виноградова Н.М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 77-85.

Bizgacha chop etilgan ilmiy adabiyotlarda ular alohida obyektlar sifatida o'rganib kelinsada, ammo Shimoliy Baqtriyaning bronza davri yodgorliklarining (Dehqon jamoalari va chorvador aholini) moddiy madaniyatida o'z aksini topgan dafn marosimlari va diniy e'tiqodi bir butun ilmiy tizimga solinib, umumlashtirilmagan. Ulardan tegishli tarixiy xulosalar chiqarilmagan. Shu bois ham Shimoliy Baqtriyaning bronza davri yodgorliklari maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan. Shuning uchun ham ushbu tadqiqot ishida barcha birlamchi manbalar mustaqillik mafkurasi asosida, xolislik va obyektivlik tamoyillariga asoslangan holda, yangicha qarashlar va yondashuv asosida o'rganildi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Miloddan avvalgi 3-2 ming yillikni o'z ichiga qamrab oladi. Bu davrda Janubiy Tojikiston hududi bo'ylab ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy o'zgarishlar yuz beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Bronza davri o'troq va chorvador qabilalarning xo'jalik xayoti, moddiy madaniyati va diniy e'tiqodini birgalikda, tadqiqot obyekti sifatida o'rganishdir.

Tadqiqotning vazifalari. Mana shu maqsaddan kelib chiqib, muammo ilmiy yechimini topishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- Janubiy Tojikiston hududlarida bronza davrida yashagan dasht va qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklarining tarqalish geografiyasini o'rganish;
- bronza davri urug' jamoalarining xo'jalik xayoti, moddiy madaniyatini arxeologik obyektlarda kuzatish;
- bronza davridagi ajdodlarimizning dafn marosimlari, diniy e'tiqod va etnomadaniy hayoti bilan bog'liq juda katta qatlam faktik materiallarni yaxlit bir ilmiy tizimga solib, chuqur tahlildan o'tkazish va tegishli ilmiy xulosalar asosida umumlashtirish.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot materiallari tarixiylik, ilmiy xolislik va obyektivlik prinsiplari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy-qiyosiy tahlil, qadriyatlar uyg'unligi kabi tamoyillarga amal qilindi va ilmiy-metodologik omil, tarixiy-falsafiy qarashlar hamda uslublarga jiddiy e'tibor berildi. Ushbu tadqiqotni

yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tarixni yaratishda birlamchi manbalarga suyanish haqidagi g'oya va fikrlari dastur-amal bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy yangilik: Tadqiqotda Janubiy Tojikiston hududlarida bronza davrida o'troq dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari bilan shug'ullangan ajdodlarimizning bizga qoldirib ketgan moddiy madaniyati, diniy e'tiqod izlari va dafn marosimlari bilan bog'liq turfa xil urf-odatlarini yaxlit bir ilmiy tizimga solib o'rganib chiqildi. Tadqiqotda chop etilgan ilmiy adabiyotlar va ko'pgina arxeologik kolleksiyalarni majmua o'rganib chiqilib, yangicha qarashlar asosida qaytadan tahlil qilindi;

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: Dissertasiya natijalaridan ko'p jildli "O'zbekiston tarixi"ni hozirgi zamon talablari va yangicha qarashlar asosida tayyorlanayotgan qayta nashrini tayyorlashda, Arxeologiya fanidan o'quv qo'llanmalar yaratishda, Oliy o'quv yurtlari va akademik lisey hamda kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratishda, Oliy o'quv yurtlari qoshida tarix yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida, shuningdek, maxsus kurslar o'qish va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot mavzusining sinovdan o'tish holati: Tadqiqot mavzusi bo'yicha Samarqand Davlat Universiteti miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi: Dissertasiya mavzusi bo'yicha ilmiy jurnallar va ilmiy anjuman to'plamlarida 3ta maqola e'lon qilingan.

Dissertasiya tuzilishi va xajmi: Tadqiqot kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxati va illyustrativ material-albom ilovalaridan iborat. Dissertasiyaning hajmi 69 bet, adabiyotlar ro'yxati va illyustrativ material tablislari 10 betni tashkil etadi.

I-Bob. ZARAFSHON VODIYSINING ENEOLIT VA BRONZA DAVRI YODGORLIKLARI XUSUSIYATLARI.

1.1. Zarafshon vodiysi ibtidoiy urug'-jamoalarining o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.

Ma'lumki, miloddan avvalgi IV-III – ming yilliklar davomida O'rta Osiyoda yonma-yon ikkita madaniy-xo'jalik zonalari mavjud edi. Janubiy-g'arbda ilk dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar yashasa, mintaqaning qolgan hududlarida hayvon va baliq ovi bilan tirikchilik o'tkazuvchi qabilalar yashar edilar. Albatta, bu ikki zona jamoalari biqiq holda, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarsiz yashay olmaganlar. Har ikki tomon jamoalarining oziq-ovqat va kiyim-boshga bo'lgan kundalik ixtiyojiy talablarining oshib borishi, so'zsiz, ular o'rtasida iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga olib kelgan.

Bu iqtisodiy hayotiy talablardan kelib chiqqan aloqalar, qachonkim, ibtidoiy ajdodlar tomonidan ilk bor metall kashf etilib, undan mehnat va jangavor harbiy qurollar ishlab chiqarishga o'tilgach, yanada jadalroq rivojlana boshladi. Mehnat qurollarini metallardan ishlab chiqarish xo'jalik ixtirolarini qabilalararo keskin rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Miloddan avvalgi III-ming yillikning oxiri va II-ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoda davom etayotgan mintaqaviy rivojlanishning xarakteri va ular o'rtasidagi hududiy chegaralar doirasi o'zgardi. Masalan, qadimgi dehqonchilik hududlari kengayib bordi. O'rta Osiyoning janubiy-g'arbida neolit davrida tashkil topgan dehqon jamoalarining yangidan-yangi manzilgohlari eneolit davriga kelganda nafaqat Kapetdag yonbag'irlariga keng yoyildi, balki uning sharpalari Zarafshon vodiysiga ham kirib bordi. Masalan, yuqori Zarafshon vodiysida qad ko'targan so'nggi eneolit va bronza davri yodgorligi – Sarazm ana shu o'zgarishlardan nishona edi.

Sarazm yodgorligi Zarafshon vodiysi qadimgi dehqonchilik madaniyati qabilalarining nafaqat noyob manzilgohi, balki O'rta Osiyo mintaqasida yirik metallurgiya markazi sifatida mashxurdir. Sarazm metallurglari so'nggi eneolit va ilk bronza davrida (Sarazm II va III) Mehnat qurollari ishlab chiqarish hamda ruda qazish va eritish, metall xomashyosi bilan savdo qilishda yuksakliklarga erishadi.

Sarazm IV davriga kelib, Sarazm metallurgiya ustaxonalari metall xomashyosi va metall buyumlar ishlab chiqarishni yanada kengaytiradi. Sarazm nafaqat tevarakatrof rayonlarni, balki butun O'rta Sharq mintaqalarini metall predmetlari va metall xomashyo bilan ta'minlovchi markazga aylanadi.

Sarazm IV davri ushbu makonda qadimgi sarazmliklarning so'nggi hayoti bilan bog'liq. Bu davrda yirik hovlilar maydonlarida kulolchilik xumdonlari, tosh va shag'ol yotqizilgan yo'lakchalar paydo bo'ladi. Tosh va metallardan turli xil mehnat qurollari, uy-anjom asboblari ishlab chiqarish avvalgidek jadal suratlar bilan rivojlanishda davom etadi va ularning turlari ko'payadi. Kalta va uzun tig'li pichoq va hanjarlar ishlab chiqarish keng yoyiladi. Ularning sopi qarmoqsimon bo'lib, ular hanjar va pichoq dastalarining suyak qoplamalarini mustaxkamlashga moslashtirilgan. Bu davr metallurgiya sanoatida jangavor harbiy qurollar: bolta va paykonlar, dastali bronza ko'zgulari, urug' jamoasi sardorining hukmdorlik hassasi (aso), turli xil shaklar ko'rinishida yasalgan muhr va tosh g'urzilari ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi. Metall muhrlar kolleksiyasida terrakotadan yasalgan muhr ham bor. Bularning barchasi qadimgi sarazmliklar jamoasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot mulkiy tabaqalanish sari jadal ketayotganligidan guvohlik beradi.

Bularning barchasi bir tomondan mahalliy mis va qo'rg'oshin xomashyosiga asoslangan metall ishlab chiqarish hunarmandchiligini jadal rivojlanayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, Sarazm metallurglarining Qadimgi Sharq sivilizasiya o'choqlari va O'rta Osiyoning shimoliy va shimoliy-sharqiy mintaqasi dasht qabilalari (tozabog'yob va andronova madaniyati sohiblari) bilan iqtisodiy savdo munosabatlarini tabora kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Ehtimol, eksportga tayyorlab qo'yilgan 10 kg. qo'rg'oshin yombisini Sarazmdan topilishi bunga misol bo'la oladi¹⁵.

Bu masalada Sarazmdan taxminan 40-45 km sharqda, Zarafshon tog' bag'ridan Kanchach, Yori va Jilau kabi mis va qo'rg'oshin konlarini topilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori Zarafshon tog' tizmalaridan topilgan oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, simob, qalayi va feruza konlari bundan dalolat Beradi. Zarafshon suv yo'llari esa Sarazm metallurglarini ushbu tog' konlari bilan oson bog'lanishlariga keng imkoniyatlar bergan. Bu mahalliy ma'dan konlarining

¹⁵ История таджикского народа . том 1, Душанбе- 1998, стр. 159.

mavjudligi Sarazmda metallurgiya sanoatining professional darajada ixtisoslashuviga olib keladi, ya'ni yangidan-yangi ma'dan konlari qidirish, xomashyolarni transportirovka qilish, metall eritish, yombilar quyish va metallardan turli xil mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari yasash professional darajaga ko'tariladi.

Metall predmetlarining kimyoviy analiziga ko'ra, ular tarkibining asosini mis tashkil etadi (89,3-96,6 %). Ularda mishyak 3,3 prosentgacha, qalayi 1,6 prosentgacha uchraydi. Sarazmda og'irligi yaqin 10 kg keladigan qo'rg'oshin yombisini topilishi sarazmliklarni metall eksporti bilan ham shug'ulganligiga ishora qiladi¹⁶. Hozirning o'zida Sarazmda topilgan metall predmetlarning soni 150 tadan oshib ketdi. Topilmalar orasida bronza pichoqlar, hanjar va boltalar, paykon va muhrlar, oltin va kumushdan ishlangan taqinchoq-bezaklardan tashqari, bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan metall eritish qozonlariyu (tigellar), asbobu-anjom quyish qoliplari, metall eritish qo'ralariyu, ma'dandan ajratib olingan yombi-xomashyolar ko'plab topildi. Bularning barchasi Sarazmda eneolit va bronza davrida yaxshigina metallurgiya markazi tarkib topganligidan dalolat beradi. Bu konlar hatto ma'lum vaqtlardan so'ng uzoq Sibir va Tog'li Oltoy dasht qabilalarining ham e'tiborini o'ziga tortadi¹⁷.

Qadimgi Sarazm aholisining iqtisodiy asosini sug'orma va lalmikor dehqonchilik hamda xonaki chorvachilik tashkil etgan. Hunarmandchilikning qator sohalari, jumladan metallurgiya va metall ishlab chiqarishdan tashqari, kulolchilik rivojlanadi. Bu davr uchun xarakterli texnologik uslub-kulolchilik charxida idish yasash paydo bo'ladi. Sarazm IV qatlamidan kulolchilik dastgohini aylantiruvchi o'qining ikki dona tosh asosini topilishi bundan guvohlik beradi.

Darhaqiqat, qadimgi Sarazm madaniyati hunarmandchiligida keramika ishlab chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Sopol ishlab chiqarish asosan qo'l mehnatiga asoslangan, faqat uning so'nggi bosqichidagina sopol ishlab chiqarishda kulolchilik charxidan foydalanishga o'tildi. Sarazm keramikasi uch turkumga bo'linadi: ovqat tayyorlashga moslashgan idishlar (kuxonnaya posuda), ovqat suzishga moslashgan idishlar (stolovaya posuda) va oziq-ovqat zahiralarini

¹⁶ История таджикского народа. Том 1, Душанбе-1998, стр. 159.

¹⁷ Исаков А., Потёмкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане. СА, № 1, 1989, стр.145-167.

saqlashga moslashgan xumlar (tarnaya posuda). Ular orasida aksariyat ko'pchilikni ovqat suzishga, dasturxonga ovqat tortishga moslashgan idishlar (stolovaya posuda) tashkil etadi. Ularning sirtiga ishlov berilgan, ya'ni sir bilan pardozlangan. Ularning sirtki pardozi uchta asosiy guruhga bo'linadi: yorqin tiniq, kulrang va qora tiniq. Birinchi guruh keramika orasida qizil sir ustiga rangli naqsh solingan idishlar alohida ajralib turadi. Bu tipdagi idishlar o'zlarining kelib chiqish ildizlari jihatidan Qadimgi Sharq sivilizasiyasining ikki mintaqasi bilan ya'ni janubiy – sharqiy Turkmaniston, aniqrog'i Geoksyur vohasining so'nggi Eneolit kompLeksleri va Hinduqushdan janubda joylashgan Seyiston-Belujiston mintaqalari bilan bog'langan. Kulrang qora sopollar esa kelib chiqishi jihatidan shimoliy Eron yodgorliklari bilan bog'langan.

Sarazmning asosiy keramikasi sirtiga berilgan pardozlar, ular ustidan yuritilgan rang-barang gullar sarazmliklarni bir tomondan qadimgi dehqonchilik mintaqalari-janubiy Turkmaniston va Belujiston-Seyistonning bobo – dehqonlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, Sarazm sopollar kompLeksida kaltaminor madaniyatiga tegishli sopol parchalarini uchrashi ularni quyi Zarafshon havzasi neolit davri kaltaminor jamoalari bilan ham iqtisodiy va etnomadaniy jihatdan aloqada bo'lganliklaridan guvohlik beradi.

Sarazm sopollarining terma texnikasi sifat jihatidan yuqori darajada. Ular tadqiqotchi muallif A. Isakovning ta'kidlashicha, bir kaerali va ikki kaMerali xumdonlarda pishirilgan. Ikki kamerali xumdonlar hajm jihatidan kichikroq bo'lib, ularning o'chog'i yonginasiga joylashgan sferasimon shifli alangaxonasiga nisbatan chuqurroq. Xuddi shunday xumdonlar Sopollitepada ham topilgan¹⁸.

Sarazmda toshdan mehnat qurollari ishlab chiqarish ham professional xarakTerga ega edi. Sarazmning arxeologik kompLeksida 40 ga yaqin toshdan ishlangan predmetlar topilgan. Ular parma, uskuna, bolg'a,. Teri oshlash toshlari, o'lchov standarti bilan bog'liq maxsus og'irlik o'lchov toshlari, to'qimachilik dastgohining toshlari edi¹⁹. Qimmatbaho toshlardan turli xil taqinchoqlar, tumor va muhrlar yasash ham professional yuksaklikka ko'tarilgan. Sarazmning yuqori qatlamidan noyob muhr topilgan. U doira shaklida bo'lib, uning yuzasini aylanasi

¹⁸ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистан. Ташкент-1977, стр..33-38.

¹⁹ Исаков А. Саразм....стр.97-99.

bo'ylab ishlangan sig'ir yoki navvos surati nafaqat o'zining noyoblighi bilan, balki bronza davri naqqoshining yuksak mahorati bilan ham kishini lol qoldiradi. Turli xil (tosh, bronza, Terrakota) materiallardan ishlangan shunday noyob muhrlar qadimgi Baqtriya va Marg'iyonada miloddan avvalgi II-ming yillikda keng tarqalgan²⁰.

Qadimgi Sarazmda teriga ishlov berish, to'qimachilik yuqori darajada rivojlangan. Buning ashyoviy isboti sifatida qadimgi Sarazmning barcha bosqichlarida ko'plab uchraydigan teri oshlash toshlarini va urchuqtoshlarni ko'rsatish mumkin. Sarazm madaniyati hunarmandchilik tarmoqlarining ahvoli masalasida shu narsani ta'kidlash joizki, Sarazm aholisi kulolchilikda metallurgiya va toshga ishlov Berishdek yuksaklikka erisha olmaganlar. Sekin aylanish asosida qurilgan kulolchilik charhi yordamida sopol ishlab chiqarish atigi Sarazm IV davrida kashf etildi. Darhaqiqat, Sarazm madaniyatining kelib chiqish ildizlari garchi Nomozgoh etnomadaniy dunyosi bilan bog'liq bo'lsada, ammo Zarafshon vodiysining tabiiy yer osti boyliklari sarazmliklarning dehqonchilik va kulolchilikka nisbatan ko'proq metallurgiya sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berganliklaridan dalolat beradi.

Har qalay, Sarazm arxitekturasini, moddiy madaniyat, xo'jalik asosi va diniy obyektlar kompleksi Sarazm madaniyatining etnik jihatdan janubiy mintaqalar bilan uzviy bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Yuqori Zarafshon havzasi bir vaqtning o'zida o'zining tabiiy yer osti boyliklari bilan so'nggi eneolit davridan boshlab turli mintaqalar qabilalarining iqtisodiy xo'jalik manfaatlari va savdo aloqalarini uchrashtiradigan markazga aylanadi. Yuqori Zarafshonga xos bu noyob imkoniyat butun bronza davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Masalan, Panjikent yaqinidan Zarcha Xalifa degan joydan arxar bilan birga ko'milgan erkak kishining mozori ochilgan²¹. Mozordan topilgan barcha bronza predmetlari va kulolchilik charhida ishlangan Sopoli madaniyatining Jarqo'ton bosqichiga Tegishli ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Yoki bo'lmasa, Zarafshon vodiysining o'rta qismidan, Jom qishlog'idan topilgan bronza davri "savdogar sayyohning" mozori Sarazm metallurgiya markazi bilan bir tomondan dasht mintaqalari,

²⁰ Сарианиди В.И. И здесь говорил Заратушта. Москва-1992, стр 236-246; его же. Древние земледельцы Афганистана. Москва-1977, стр. 85, 87, 90, 94 – 96, табл. 1-III.

²¹ Асқаров А. Қадимги Суғд цивилизациясининг... 39 бет.

ikkinchi tomondan, qadimgi dehqonchilik madaniyati qabilalari muntazam savdo aloqada bo'lganligidan guvohlik beradi.

Shunday qilib, qadimgi Sarazm aholisining moddiy va ma'naviy hayoti va arxeologik komplekslarining ilmiy tahlili uning kelib chiqish ildizlarini birinchi navbatda janubiy mintaqalarning qadimgi dehqonchilik jamoalari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Aniqrog'i, Zarafshon vodiysi qadimgi dehqonchilik o'chog'ining ildizlari Sarazm 1 keramika materiallariga ko'ra, Janubiy Turkmanistonning ko'ksur (geoksyur) oazisi jamoalariga borib taqaladi. Yodgorlikning arxeologik tadqiqot ishlari bilan muntazam shug'ullangan arxeolog A.Isakov, ularning ko'chib kelish sabablarini Tejen daryosining suv resurslarini kamayishi tufayli yuz Bergan ekologik sharoit bilan bog'laydi²². Bizningcha, Geoksyurli jamoalarning bir qismini Zarafshon vodiysiga migrasiyasi ko'proq Yuqori Zarafshondagi ma'dan konlari bo'lgan. Shuningdek, qadimgi Sarazm madaniyatini kelib chiqish negizida Geoksyur ildizlari asosiy etnik komponent bo'lib qolgani holda, uning shakllanishini ilk bosqichlari davrida yana bir boshqa etnik guruhlar ishtirokini borligiga ishora qiluvchi faktlar borki, ular Hindikushdan janubda istikomat qiluvchi qadimgi dehqonchilik jamoalariga borib taqaladi. Bu faktlar Sarazm 1 bosqichiga tegishli oilaviy xilxonadan topilgan va dengiz chig'onogidan ishlangan bilaguzuklar bo'lib, ular aynan Hind dengizi mintaqalaridan keltirilgan. Shu davr keramikasi sirtiga ishlangan rangli naqshlarning uslubiy bezagi esa Belujistonning Shahri –Soxta madaniyati sopollarini eslatadi²³. Bunday aloqalarning zaminida, so'zsiz, Zarafshon metalining savdosi yotadi. Zarafshon metalini eksport qilish an'anasi Sarazm madaniyatining barcha bosqichlarida rivojlanishda davom etdi.

1.2. Yuqori Zarafshonda qadimgi Dehqonchilik madaniyati qabilalari

Movarounnahrning markaziy qismi-yuragi hisoblangan Zarafshon vodiysi o'zining tabiiy-geografik sharoitiga ko'ra, qadimgi dehqonchilik madaniyatining rivoji uchun qulay imkoniyatlarga ega. Uning O'zbekiston va Tojikiston Respublikkalari chegara rayoni - aholi punkti Sarazmda eNeolit davridan boshlab qadimgi dehqonchilik madaniyatining yangi o'chog'i tarkib topadi. Bu joy

²² Исаков А. Саразм...стр. 100-103.

²³ История таджикского народа.....стр.160.

Zarafshon daryosining Turkiston va Zarafshon tog' tizmalari oralig'idan chiqib, keng vodiya yuz tutgan joyda qad ko'targan eng qadimgi o'troq aholi qishlog'i bo'lib, u o'zining jug'rofik joylashishiga ko'ra, Sarazm nomini olgan.

“Sarazm” so'zi atoqli sug'dshunos olim V.A.Livshisning fikriga ko'ra, “sari-zamin», ya'ni Zarafshon vohasining boshlanishi demakdir²⁴. Aynan shu joyda Zarafshon vodiysi tekisliklar va tog'li mintaqalarga bo'linadi.

Qadimgi Sarazm Zarafshon tog' tizmalaridan oqib chiqqan Otchoparsoy, Chumalisoy va Sho'rnovasoy etaklarida, “Oyim ko'l” yaqinida joylashgan. Uning tevarak atrofida dehqonchilik uchun qulay, talay unumdor yerlar bo'lib, dehqonchilik madaniyatining ilk bosqichlarida aynan ana shunday joylarda bobo dehqonlar qishloqlari qad ko'targan.

Savol tug'iladi, qayerdan va qanday tarixiy sabablarga ko'ra, bu joyda qadimgi dehqonchilik qishlog'i qad ko'tardi. Ehtimol, uning mahalliy ildizlarini Sazag'on neolit madaniyatidan qidirish lozimdir. Chunki Zarafshon vodiysi doirasida qoratepa yodgorliklarida neolit dehqonchilik izlari kuzatilingan. Hozirgi yirik tadqiqotlar bo'yicha Sarazm madaniyatining kelib chiqish ildizlari, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bevosita ko'ksur (geoksyur) vohasining qadimgi dehqonchilik madaniyati qabilalariga borib taqalmoqda.

Sarazmda arxeologik tadqiqot ishlari bilan bevosita shug'ullangan A.Isakovning xabar berishiga qaraganda, bu joyda hayot uzliqsiz 1,5 ming yil (eNeolit va bronza davrlarida) davom etgan²⁵. Yodgorlikning umumiy maydoni 100 gektarga yaqin. U katta-kichik va har xil balandlikdagi 10 ta tepaliklardan iborat. Yodgorlikning ancha qismi o'tgan asrlarda aholining hovli-joy qurilishi va uning ustidan o'tkazilgan sug'orish inshootlari tufayli buzilib ketgan. Uning atigi uchdan bir qismigina saqlanib qolgan. 7 yil davom etgan arxeologik qazishmalar davomida 4 ta obyektda keng ko'lamli qazishma ishlari olib borildi va 10 ta punktda qadimgi qishloq hayotining davomiyligini o'rganish uchun shurflar qazildi. Natijada qadimgi qishloq hayotining 4 tarixiy bosqichi aniqlandi, har bir bosqichda yuz bergan tub o'zgarishlar kuzatildi.

²⁴ Исаков А. Саразм (К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долины). Душанбе-1991. Стр. 5.

²⁵ Исаков А. Саразм....стр.112-116 бетлар.

Sarazm-1 davrida bu joyda yangi etnik guruh qishlog'i paydo bo'ladi va bu joyda qurilgan uy-joy komplekslarini (II qazishma) shimol, shimoliy – g'arb va g'arb tomondan yarim aylana mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Qadimgi Sarazmning markaziy qismida (IV qazishma) Sarazm 1 davriga tegishli urug' jamoasining xilxonasi paydo bo'ladi. Qadimgi Sarazmda o'rganilgan bu hilxona janubiy Sibirning Afanasyeva madaniyati hilxonalari singari doira shaklidagi tosh g'ov (diametri 15 m.) bilan o'rab olingan, uning ichiga 5 ta qabr joylashtirilgan. Tosh g'ovning markaziy qismidagi qabrga uch kishi (erkak, ayol va o'spirin) ko'milgan. Ayolga tegishli qabr ashyoviy dalillarga qaraganda, u o'z jamoasida katta ijtimoiy nufuzga ega bo'lgan. U o'sha davr urf-odatlariga ko'ra, bayramona kiyim-boshlari bilan ko'milgan.

Uning kiyimlariga feruza, lyapis-lazur, serdolik, yashma kabi qimmatbaho toshlardan yasalgan munchoqlar qadalgan. Bosh kiyimi ham boy taqinchoqlar bilan bezatilgan. Maydalab o'rilgan soch tolalariga 49 ta oltin munchoqlardan iborat munchoq shodalari osib qo'yilgan. Qo'llariga dengiz chig'anog'idan ishlangan bilak uzuklar taqilgan. Ayol jasadi yonidan dastali jez oyna, suyakdan ishlangan bigiz, 5 ta urchuqtosh va 2 ta ayol ma'budasining terrakotasi topilgan. Hilxonaning boshqa qabrlarida marhum va marhumalarga atalgan ashyoviy dalillar uchratilmagan.

Sarazm 1 davri uy-joy komplekslari va xilxonani qazish vaqtida sirtiga monoxrom rangli naqsh solingan sopol parchalari hamda naqshsiz, sirtiga tiniq qora sir berilgan kulrang sopol parchalari topilgan. Stratigrafik shurfning Sarazm 1 davriga tegishli qatlamidan mis hanjar, Qazishma-1 da ochilgan xonalardan Nomozgoh II davriga tegishli polixrom rangli murakkab naqsh (ковровый ornament) solingan keramika parchalari ham uchratilgan. Sarazm 1 materiallar kompleksi tadqiqot obyekti muallifining fikriga ko'ra, Janubiy Turkmanistonning Nomozgoh II davri qadimgi dehqonchilik madaniyatini eslatadi.

Sarazm II – Sarazm madaniyatining shakllanish davri. Bu davrda qishloq hududi anchagina kengayadi, alohida qurilgan ko'p xonali hovlilar, ular tarkibida doira shaklidagi altarli xonaki ibodatxonalar paydo bo'ladi. Keng va tor ko'chalari va hovlilari bilan yirik uy-joy massivlarining shakllanishi yuz beradi (2 va 4 qazishmalar), markazida dumaloq mehroblari bilan alohida qad ko'targan qizil

rangli monumental ibodatxonalar paydo bo'ladi. Turar-joy xonalari tegishli ichki uy jihozi bilan kattalashadi, ya'ni to'qimachilik dastgohlarini joylashtirishga moslashtiriladi.

Me'moriy komplekslar burchaklarini Nomozgoh IV (ilk bronza) davri uchun xarakterli to'rt qirrali ustunlar (pilyastrlar) bilan bezash boshlanadi. Sopol idishlar sirtini turli-tuman rangli naqshlar bilan bezash keskin qisqaradi, sopol sirtini bir xil rangda (monoxrom) bezash va tiniq sirli kulrang idishlar yasash keramika ishlab chiqarish hunarmandchiligida yetakchi o'ringa ko'tariladi. Bu davr sopol idishlari orasida ba'zida kaltaminor madaniyatiga tegishli keramika parchalari uchraydi. Demak, bu esa Sarazm madaniyatini shakllanishida mahalliy aholining ishtiroqi borligidan dalolat beradi²⁶.

Sarazmliklarning tashqi aloqalari doirasi kengayadi (Belujiston-KVetta, Seiston-Shahri Soxta). Metallurgiya sanoati izga tushadi: ma'dan konlarini qidirish, kondan ruda qazib olish, ularni Sarazmga keltirish, ruda eritish, undan turli xil mehnat va harbiy qurollar yasash keskin oshadi. Har xil tog' jinslaridan mehnat va jangavor harbiy qurollar yasash (qadoqtosh-sport giralari, langarcha, kelitosh, eshik o'qi osti toshi, tosh kosa, tosh stakanchik, qabila sardori chuqmorining toshi (bulava), urchuqtosh va boshqalar) yuksak darajada rivojlanadi

Sarazm III davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tariladi. Manzilgohning barcha territoriyasi uy-joy qurilishi va hunarmandchilik kvartallari bilan qoplanadi. Turar-joy massivlari va hunarmandchilik kvartallari orasida ijtimoiy va diniy xarakterdagi monumental binolar paydo bo'ladi (3 va 4 qazishmalar). Ko'pxonali turar-joylarning hovlilari tobora kattalashib boradi va ular hududiy doirasida kulolchilik xumdonlari va metallni ishlash ustaxonalari (2 va 4 qazishmalar) paydo bo'ladi. Hunarmandchilik sohasida ixtisoslashuv yuz beradi. Kulolchilik sohasida ichi va sirtiga qoramtir qizg'ish sir bilan pardozlangan qora va kulrang sopollar keskin kamayadi, ularning o'rmini tiniq, qizg'ish va qizil sir berilgan sopollar egallaydi. Bu xildagi sopollar ilk Nomozgoh VI davri sopoliga xarakterli bo'lib, bu xilda sopollarni pardozlash Sarazm madaniyati badiiy kulolchilik maktabining uslubiy an'anasiga aylanadi.

²⁶ Исаков А. Саразм... рис. 26, 20.

Bunday uslubda sopol ishlab chiqarish Sopollitepa sopoli uchun ham xarakterli edi.

Endi Sarazmda o'rganilgan hovli-joylar tahliliga kelsak, III-qazishma maydonida uch qurilish bosqichlaridan iborat uy-joy komplekslari ochilgan. Birinchi uy-joy majmuasi materik ustida qad ko'targan, undan faqat ayrim xonalarning ba'zi bir devorlari saqlangan. Ikkinchi qurilish bosqichi hovli-joylari 225 kv. m. maydonni egallagan 70 sm balandlikdagi platforma ustiga qurilgan. Uchinchi qurilish bosqichi uy-joylari qalin madaniy qatlamlar ustida paydo bo'lgan. Ular ikkinchi qurilish bosqichi uylaridan g'arbga tomon joylashgan bo'lib, bular bir yarusli ikki kamerali xumdon va bir necha xonalardan iborat.

O'rganilayotgan obyekt ichida ikkinchi qurilish bosqichi uy-joy qoldiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shunday uy-joy komplekslaridan biri mahobatli platforma ustiga aniq reja asosida qurilgan 12 ta xonalarni o'z ichiga olgan yaxlit kvadrat shaklidagi monumental bino bo'lib, ulardan to'rttasi kvadratning uzunasi bo'yicha koridor shaklida qad qo'targan, binoning markaziy qismini qolgan 8 ta xonalar egallagan. Ular bir-birlariga parallel qilib qurilgan to'rttadan xonalarni tashkil etadi. Qurilish rejasida geometrik simmetriyaga qat'iy amal qilingan, ya'ni ularning to'rttasi kvadrat (3x3 m.), a qolgan to'rttasi esa to'g'ri to'rtburchak (3x3,75 m.) shaklida. Ulardan ba'zilarida (3,4 xonalar) devor ichiga o'choqlar joylashtirilgan, bittasining markazida aylana shaklda altar (Mehrob) topilgan. Bu bino otashparastlarning ibodatxonasi bo'lganligiga shubha yo'q. Sarazm yodgorligi bronza davri madaniy turmushning turli, jumladan, hunarmandchilik, binokorlik, dehqonchilik kabi sohalar taraqqiyotini ifodalovchi boy arxeologik kompleks manbalar berdi.

a) Zarcha Halifa mozori. Bronza davriga kelib Sarazm metallurgiya markazi xom ashyolarining dovrug'i janubiy va shimoliy mintaqalar jamoalariga borib yetadi. Natijada Sarazm metali dastlab janubiy mintaqalarga, qadimgi dehqonchilik madaniyati jamoalari dunyosigacha kirib boradi. Bu haqda Sarazm yodgorligidan 13 km sharqda, Panjikent shahri yaqinidan topilgan Sopolli madaniyatining Jarqo'ton bosqichiga tegishli mozor alohida ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, bu yolg'iz qabr 1986 yilda Zarcha Xalifa deb atalgan joydan chiqindi suv quvurini

o'rnatish vaqtida topilgan²⁷. Chiqindi suv quvurini yotqizishda gigant ekskavator cho'michi, tadqiqotchi S.Bobomullayevning yozishiga qaraganda, qabrda yotgan skeletga tegib, uning ustki qismini buzib ketgan.

Skelet yer sathidan 3,5 m. chuqurlikda, shag'al qatlami ustida yotgan oddiy yorma go'r bo'lgan²⁸ deydi S.Bobomullayev. Biroq skelet va unga tegishli ashyoviy dalillar yotgan qabr maydoni (yaqin 6 kvadrat Metr) va uning chuqurligiga (3,5 m.) qaraganda, mozor Sopolli madaniyatiga qarashli qabrlar tuzilishidan farq qilmaydi, ya'ni u ayvonli lahad shaklida bo'lgan.

Lahad g'arbdan sharqqa tomon oval shaklida qazilgan, uning uzunligi 3,10 m. skeletning oyoq – qo'llari buklangan, o'ng yoni bilan lahadga qo'yilgan. Skeletning boshi shimoliy-g'arbga qaratilgan. Uning yaqinida burama shoxli arxar skeleti chap yoni bilan ko'milgan²⁹.

Mozorga qo'yilgan predmetlarning joylashishi e'tiborga loyiq. Odam bosh chanog'ining quloq bo'shlig'ida ikkita oltin isirg'a topilgan. Qolgan predmetlar asosan qabrning janubiy-sharqiy qismida to'p-to'p holda uchratilgan. Umuman, qabrdan hammasi bo'lib 30ta predmet topilgan (muallif ularning sonini 24 ta deb ko'rsatadi. Ammo u qabrdan topilgan 6 ta suyak predmetlarni negadir hisobga olmagan). Shundan 16 tasi bronza, 3 tasi oltin, 6 tasi suyak, 2 tasi toshdan yasalgan. Ular ichida 3 ta sopol idishlar ham bor. Arxeologik materiallar kompleksi o'z tarkibiga ko'ra, to'liq sopolli madaniyatiga, uning jarqo'ton bosqichiga tegishlidir³⁰.

Topilmalar bronzadan ishlangan tarnov jumrakli kosa, burtma korpusli silindir idish, yupka bronza listdan ishlangan tugma va ilgaklar, bronzadan ishlangan 2 ta suvluq, yoldor ot boshli to'g'nag'ich, pichoq va xanjar, oltindan ishlangan sirg'a, oltin biser-munchoqlar, oltin zanjir, suyakdan ishlangan naycha, 4 ta suyak to'qa (psaliya), qumtoshdan ishlangan hovancha sopi, feruza toshidan ishlangan biser-munchoqlardan iborat. Zarcha Xalifa qabridan topilgan 3 ta sopol idishlar bo'g'zi tor sharsimon ko'zalar bo'lib, ular Sopolli madaniyatining jarqo'ton bosqichi uchun xarakterlidir.

²⁷ Бобомуллоев С. Раскопки гробницы бронзового века на верхнем Зеравшане. «Stratum», Санкт-Петербург, 1999, стр.307-313.

²⁸ Бобомуллоев С. Указ. Работа, стр.308.

²⁹ Бобомуллоев С. Указ. Работа, стр.308.

³⁰ Указ. работа, стр. 308-312.

Zarcha Xalifa kolleksiyasida bo'g'zi tor sharsimon shaklidagi oltindan ishlangan mitti xurmacha bor. U qabrdan 10 metrlar chamasi sharqda, ekskavator kovlagan tuproq uyumidan topilgan. Tadqiqotchi S.Bobomulloyevning yozishicha, Zarcha Xalifada yolg'iz bitta mozor bo'lmagan. Chunki chiqindi suv quvurlarini yotqizish munosabati bilan transheyalar qazish vaqtida boshqa bir mozor ham buzib tashlangan bo'lishi mumkin. Oltin xurmacha esa o'sha mozorga tegishli³¹.

Biroq biz bunday deb o'ylamaymiz. Chunki yaqin atrofda u davrga oid qadimgi bobo dehqonlarning moddiy madaniyat izlari uchramaydi. Bizningcha, mitti oltin xurmacha aynan Zarcha Xalifa mozoriga tegishli. Agar transheya qazish vaktida ekskavator cho'michining skelet yuzasini qo'zg'ab ketganligini hisobga olinsa, u holda oltin xurmacha ushbu mozorga tegishli ekanligiga shubha qolmaydi. Chunki gigant-ekskavator o'z cho'michidagi to'proqni bimalol 10 Metr masofaga tashlashi mumkin.

³¹ Бобомуллоев С. Указ. работа, стр.309.

II-BOB. QADIMGI DEHQONCHILIK MADANIYATI YODGORLIKLARI VA ULARNING DAVRIY SANASI

2.1.O'troq dexqonchilik yodgorliklarining davriy sanasi.

Janubiy Tojikistonning keng va xilma xil geografik iqlim sharoiti, uning aholisi ishlab chiqarish xo'jalik shakllarida o'z aksini topgan va ko'p hollarda ularning tarixiy rivojlanish yo'llarini oldindan belgilab bergan. Shu bois, bronza davri yodgorliklari tog' oldi hududlari va tog'lar oralig'idagi vohalarida, daryo havzalarida joylashgan. Tojikiston xududidan asosan bronza davrining chorvador qabilalari yashagan hamda uning Janubiy O'zbekistonga chegaradosh hududlarida bronza davrining so'nggi bosqichlarida qadimgi dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar yashaganliklari haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar ham topilgan.

Qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab janubiy Tojikiston hududlaridan topila boshladi. Masalan, Sopolli madaniyatiga tegishli 2 ta qabriston Nurek GES hududida³², Xisor vodiysida Tandiryo'l va Zarkamar qabristonlari, Daxana³³ va Teguzakmakonlari, Tairsuv daryosi havzasida Kangurtut qabristoni va makoni hamda Baraki-Kurug makoni va nihoyat yana bir yodgorlik-Xo'ja G'oyib³⁴, Kulob vodiysidan o'rganilgan. Ulardan topilgan arxeologik majmualar, birinchi navbatda, kulolchilik mahsulotlari Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi topilmalariga o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Demak, Janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlaridan o'rganilgan qadimgi Dehqonchilik madaniyati yodgorliklari Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi sanasi bilan, ya'ni mil. avv. 1300-1200 yillar bilan belgilash mumkin.

Chorvador qabilalar madaniyati yodgorliklari va ularning davriy sanasi

Tojikiston hududlari Shimoliy Baqtriyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning hududlari qadimda ko'proq chorvachilik xo'jaligining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lsada ammo Sopolli

³² Пьянкова Л.Т.Нурекский могильник эпохи бронзы // А.О 1974 года. – Москва, 1975, – С. 542-543; Ўша муаллиф. Отчет о работе Нурекского археологического отряда // АРТ. – Вып. XIV (1974). – Душанбе, 1979. – С. 78-92.

³³ Пьянкова Л.Т. Работа Байпазинского отряда на поселении бронзового века Дахана (1985) // АРТ. – Вып. 25. – Душанбе, 1994. – С. 157-165.

³⁴ Виноградова Н.М., Гётцельт, Пьянкова Л.Т.Археологическая разведка в бассейне реки Кызылсу (Южный Таджикистан) // РА, М., 2003. – С. 103.

madaniyatining Mo'lali bosqichidan boshlab, qadimgi dehqon jamoalarining ayrim guruhlari Hisor vodiysiga ham kirib boradilar. Bunga dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarini birgalikda olib borish uchun qulay joy hisoblangan tog' oldi hududlari tanlangan. Bu mintaqalarda yomg'ir tez-tez yog'ib turishi sababli, bu hudud lalmikor dehqonchilik va yaylov chorvachiligi uchun qulay joylar hisoblangan. Sug'orma dehqonchilik uchun ham soy havzalarida keng imkoniyatlar mavjud bo'lgan.

Janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, dehqonchilik madaniyati yodgorliklarini uch kichik vohaga bo'lib o'rganish mumkinligi aniqlangan. Birinchisi – Hisor qadimgi dehqonchilik kichik vohasi, ikkinchisi – Vaxsh daryosi yuqori oqimi soy havzalarida tashkil topgan teguzak kichik vohasi, uchinchisi – Qizilsuv soyi quyi oqimining sharqiy irmoqlari havzasida tashkil topgan Parxar-Kulob kichik vohasidir³⁵.

Bu uchala kichik vohalarda keyingi 25-30 yil ichida sopolli madaniyatining so'nggi bosqichlariga tegishli qator dehqonchilik qishloq-makonlari va qadimgi qabristonlar topib o'rganildiki, ular orasida Kangurtut, Daxana, Teguzak qishloq-makonlari va Tandiryo'l, Kangurtut, Nurek qabristonlari alohida diqqatga sazovor yodgorliklardir. Bu yodgorliklar orqali Janubiy Tojikistonda qadimgi dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlarini so'nggi bronza davri bilan bog'lash imkonini beradi.

Janubiy Tojikistondan **Hisor** vodiysining ikki joyida dehqonchilik bilan shug'ullangan ajdodlarimizning qadimgi qabristonlari o'rganilgan. Ular Tandiryo'l va Zarkamar qabristonlari bo'lib, bu arxeologik obyektlar haqida N.M. Vinogradova asarlarida to'liq ma'lumot berilgan³⁶. Bronza davri yolg'iz qabri kushonlar davrining Tupxona va Qora pichoq mavzeida ham uchratilgan³⁷. Sopolli madaniyati jamoalarining izlari esa Hisor qal'asining ostidan topilgan³⁸. Mo'lali va Bo'ston yodgorliklarining ayrim idishlari va mis boltalari qishloq xo'jaligi

³⁵ Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 13.

³⁶ Виноградова Н.М. Могильник Тандыр-йул в Южном Таджикистане. МАИКЦА, – Вып. 18, – Москва, 1991. –С. 68.; Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 13-22.

³⁷ Виноградова Н.М., Пьянкова Л.Т. Работы в Гиссарской долине в 1977 г // АРТ, – Вып. XVII (1977), 1983. – С. 62.

³⁸ Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 13.

ekinlarini ekish, parvarish qilish vaqtlarida Dushanbe shahri atroflaridagi Sharshara, Arakchin, Ramit mavzellarida uchratilgan³⁹. Janubiy Tojikiston hududlaridan topib o'rganilgan bronza davri yodgorliklari va boshqa topilmalar orasida eng qadimiysi mis boltalar bo'lib, mutaxassislar ularni Nomozgoh V davriga tegishli ekanligini ta'kidlaydilar⁴⁰. Qolgan yodgorliklarning deyarli hammasi Sopolli madaniyatining Mo'lali-Bo'ston bosqichlariga tegishli ekanligi aniqlangan⁴¹.

Vaxsh daryosining yuqori oqimidagi **Teguzak kichik vohasida** qadimgi dehqonchilik madaniyatiga Tegishli Kangurtut, Daxana, Teguzak, Baraki Kurug va Nurek kabi yodgorliklar o'rganilgan. Kangurtut manzilgohi va qabristoni Dangara tumanining tog'li vodiysida, Kangurtut qishlog'i yaqinidan topilgan⁴². Ushbu yodgorliklar Tairsuv daryosiga kelib qo'shiladigan Kangurtut va Dugoboz soylari oralig'idagi sug'orishga qulay adirlik joylarni egallagan. Ularning shimoliy tomonida, Tairsuv daryosi irmoqlarining yuqori havzalarida Nurek qabristoni, Teguzak va Daxana manzilgohlari joylashgan. Ularda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida bu kichik voha yodgorliklarida Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi materiallari bilan Andronova hamda Bishkent-Vaxsh madaniyati topilmalari birgalikda uchrashi kuzatiladi.

Uchinchi qadimgi dehqonchilik vohasi Qizilsuv soyining Ko'kchadaryoga yaqin sharqiy irmoqlari havzasida tashkil topgan **Parxar-Kulob kichik vohasidir**. Bu kichik vohaning bir necha joylarida qadimgi dehqonchilik jamoalarining moddiy madaniyat izlari saqlanib qolgan. Aslida Qizilsuv daryosi Yaxsuv va Tairsuv soylari asosida tarkib topgan bo'lib, uning Yaxsuv tarmog'i havzasida baland-past tepaliklardan iborat Parxar-Kulob tekisligi hosil bo'lgan. Aynan ana shu joyda ushbu kichik mintaqaning ikkita dehqon jamoalariga tegishli qabristoni

³⁹ Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М. 2004. – С. 23.

⁴⁰ Литвинский Б.А. О топорах эпохи бронзы из Таджикистана // Изв. АН Тадж. ССР. Отдел общественных наук. – № 1. – Душанбе, 1961. – С. 59-66; Кузьмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века в Средней Азии. – Москва, 1966. – С. 8-9.

⁴¹ Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. М., 2004. – С. 23-24.

⁴² Виноградова Н.М. Новые памятники эпохи бронзы на территории Южного Таджикистана // «Центральная Азия. Новые памятники письменности и искусства». – Москва, 1987. – С. 76.; Первое поселение бешкентско-вахшской культуры на юге Таджикистане // «Древность историческое значение и специфика источника». Тез.док. Конференции, посвященной памяти Э.Р.Грантовского. – М., 1996. – С. 171.

joylashgan. Hozirgi kunda har ikkala qabriston maydonini, bugungi kundagi qabristonlar egallagan. Ba'zan yangi qabrlarni qazish vaqtida bronza davriga tegishli qabrlar ham uchratiladi. Afsuski, bu joylarda Rejali arxeologik qazishmalar o'tkazish man etilgan. Bir qadimgi qabr Xo'ja G'oyib Kulobiy qabristonidan, yana biri Parxar shahri yaqinidagi O'rtaboz tepaligidan topilgan. Bu qadimgi qabriston, hozirgi zamon qabrlarini qazish vaqtida buzib tashlangan. Ammo, vayron etilgan qabrlardan topilgan sopol idishlar aynan Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi bilan xarakterlanadi. Buzilgan qabrlardan yana Andronova qabilalari madaniyatiga tegishli bronza bilakuzuklar ham topilgan.

Kulob va Parxar o'lkashunoslik muzeylari eksponatlari orasida bronza davrining tosh giralari^{43*}, bazalt toshidan ishlangan shon (sapojnaya kolodka) topilgan⁴⁴. Ular mahalliy aholi tomonidan o'z tomorqalarida yerga ishlov berish vaqtida topilib, muzey eksponatlari orasidan joy olgan. Ular ham ushbu kichik vohaning bronza davri tarixidan guvohlik beradi.

Dehqon jamoalarining yana ikkita qabri Shaartuz tumanining Qizil qal'a shahri yaqinidan topilgan. Qabrda ikkita skelet yotgan bo'lib, ular juda boy ashyoviy dalillar bilan dafn etilgan. Qabrda ikkita sopol idish, 800 dan ortiq bronza, qimmatbaho toshlar, kumush, hatto oltin munchoq va bezaklar topilgan. Ikkinchi qabrda ikkita sopol idish va bronzadan ishlangan pichoq uchratilgan. Bu yerdan topilgan sopol buyumlar qabrlarni Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichiga tegishli ekanligini tasdiqlaydi. Bu topilmalar Janubiy Tojikiston hududida to'rtinchi **Shaartuz kichik vohasi** shakllana boshlaganligidan guvohlik beradi.

Ta'kidlash joizki, Janubiy Tojikiston hududlarida uchratilgan qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklarining birontasida na Sopollitepa, na Jarqo'ton va na Tillabuloq yodgorliklaridagi monumental asos ko'zga tashlanmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Janubiy Tojikiston hududi Sherobod vohasi kabi qadimgi urbanizasiya o'choqlarini shakllanishi darajasiga yetib bormagan. Fundamental

⁴³ * спорт тоши ёки полвон тош

⁴⁴ Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 63-64.

asosdagi o'troq dehqonchilik madaniyati markazlarini tashkil topishi ilk temir ya'ni Qadimgi Baqtriya davlat tizimlari shakllangan davrda yuz beradi.

Shimoliy Baqtriyaning Tojikiston qismi bronza davrida tog' vodiylari, katta va kichik daryo va soylar hosil qilgan o'tloq adir va jilg'alar mintaqada yaylov chorvachilik xo'jaligining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochgan. Shu bois bo'lsa kerak, nafaqat mintaqaning qadimgi mahalliy qabilalari, hatto miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida Sherobod va Boysun qadimgi dehqonchilik vohalaridan bu mintaqaga kirib kelgan dehqon jamoalari ham tabiiy-geografik sharoit va ekologik imkoniyatlar darajasidan kelib chiqib, chorvachilikni rivojlantirishga ko'proq urg'u berganlar.

Ana shunday urug' jamoalarining turkum yodgorliklari Kofirnigon va Vaxsh daryolari quyi oqimlari adirlarida, Amudaryoga yaqin hududlarda keng tarqalgan. Ular Vaxsh 1,2,3, Tigrovaya Balka, Oyko'l, Jarko'l, Ilk Tulxor, Ilk Aruktau, Bishkent I, II, III va Isanboy kabi yodgorliklari bo'lib, ular turli xil ichki va tashqi qurilish ko'rinishidagi qadimgi qabristonlar sifatida bizgacha yetib kelgan. Chorvadorlarning bir qabristoni Makoni-mor Qizilsuv daryosining Amudaryoga qo'shilish yaqinidagi dashtga joylashgan. Kofirnigon daryosining quyi havzasi dashtlaridan topilgan Aruktau, Tulxor, Bishkent yodgorliklarining tadqiqotchisi A.M.Mandelshtam ularni Bishkent madaniyati nomi ostida o'rgangan. Aynan shu tipdagi Vaxsh vodiysi yodgorliklarini o'rgangan B.A.Litvinskiy esa, ularni Vaxsh madaniyati nomi bilan fanga kiritgan.

Janubiy-g'arbiy Tojikistonning bronza davri yodgorliklari kelib chiqish tarixiy ildizlariga ko'ra, uchta etnik guruhlariga borib taqaladi. Bular:

- chorvador Bishkent va Vaxsh madaniyati etnik guruhlari;
- qadimgi dehqonchilik madaniyati etnik guruhlari;
- Yevroosiyo dashtlarining andronova madaniyati etnik guruhlari.

Demak, janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlari so'nggi bronza davrida turli etnik guruhlarining o'zaro iqtisodiy va siyosiy hamda etnomadaniy aloqalar markazi bo'lgan.

Bronza davrining tasodifiy topilgan yana bir ashyosi – bu dastasiga qadama naqsh berilgan hanjar bo'lib, uning yil sanasi ham (mil. avv. II-ming yillikning oxiri) belgilanadi⁴⁵. Xisor vohasining antik davriga tegishli Tupxona qabristonidan skeletning qo'l-oyoqlari bukilgan va yonboshlatilgan holatda ko'milgan ikkita bronza davriga oid qabr ochilgan. Ulardan birida qo'y suyaklari va asosi chaqmoqtoshdan ishlangan nukleus uchratilgan. B.A.Litvinskiy mana shu nukleusga asoslanib, bu ikkala bronza davri qabrlarini ilk bronza davri bilan belgilaydi⁴⁶. Aslida u yerdan topilgan sopol parchalari Mo'lali bosqichi sopollari bilan xarakterlanadi. Bu tasodifiy topilmalar Janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlari bronza davri jamoalari tomonidan keng ko'lamda o'zlashtirilganligi haqida ishora beradi. Ammo bu hududni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari 1955 yildan Bishkent vodiysida A.M.Mandelshtam izlanishlaridan keyin boshlanadi.

1955-1959 yillarda A.M.Mandelshtam Kofirnigon daryosi quyi havzalarida antik davr mozor-qo'rg'onlarini o'rganish vaqtida bronza davriga tegishli qabrlarga duch keladi. Ular ikki guruhdan iborat bo'lib, tadqiqotchi birinchisini – “Ilk Tulxor” (75 ta mozor) va ikkinchisini – “Ilk Aruktau” (12 ta mozor-qo'rg'on) yodgorliklari Deb ataydi. Bu yodgorliklar Janubiy Tojikiston hududlarida Keng ko'lamda o'rganilgan obyektlar bo'lib, tadqiqotchi tomonidan qabrlarning ichki tuzilishiga ko'ra, 4 xil turi aniqlangan. Ular orasida ilk Tulxor obyektining 57 tasida qabrga qo'yilgan buyumlarining tarkibi va qabr tuzilishi jihatidan bir xil, ya'ni qabrlar ayvonidan lahadga bir pillapoya orqali (yama so spuskom) kirilgan. Bunday tuzilish va ashyoviy tarkib jihatidan bir xil mozorlar tadqiqotchi tomonidan Janubiy Tojikiston bronza davri chorvadorlarining Bishkent madaniyati, deb ataladi. Ularning davriy sanasi esa mil. avv. XIII-IX asrlar bilan belgilandi⁴⁷.

Afsuski, na tadqiqotchi, na uning izdoshlari Bishkent madaniyati qabilalarining tarixiy kelib chiqish ildizlarini mahalliy qabilalar bilan bog'lamaydi. Aksincha, A.M.Mandelshtamning farazlariga ko'ra, Bishkent madaniyati jamoalari

⁴⁵ Кузьмина Е.Е. Металлические изделия ... – С. 52-53.

⁴⁶ Литвинский Б.А. О топорах эпохи бронзы ... – С. 62.

⁴⁷ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. ... – С. 78-92.

Baqtriyadan shimolroqda Zamonbobo va Andronova jamoalari chorvador qabilalarning bu zaminga kirib kelishi bilan bog'laydi. Shuningdek, Bishkent arxeologik majmualarida uchraydigan Dehqon jamoalariga xos topilmalarning uchrashi, bu ikki madaniyat jamoalari o'rtasida bo'lib turadigan iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar tahlili bilan izohlaydi⁴⁸. A.M.Mandelshtamning bunday xulosaga Kelishida Buxoro vohasining Zamonbobo madaniyati qabrlari tuzilishidagi o'xshashlik va uning sopol majmuasida uchraydigan sharsimon (korpusli) tuzilishdagi xurmachalar asos bo'lgan. Biroq, xali Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlari haqida, ularning arxeologik majmualari to'g'risida ilmiy adabiyotlarda tegishli ma'lumotlar mavjud emas edi. Sopolli madaniyati va uning bosqichlarini keng ko'lamda o'rganilishi natijasida A.M.Mandelshtam tomonidan bildirilgan faraz haqiqatdan uzoqroq ekanligi isbotlandi. Bu muammo, keyinroq, Janubiy-g'arbiy Tojikistonning Vaxsh va Qizilsuv daryolari quyi havzalarida B.A.Litvinskiy tomonidan Vaxsh madaniyati yodgorliklari ochib o'rganilgach, o'z ilmiy yechimini topdi. U o'z qarashlarida, ularning kelib chiqish tarixiy ildizlarini Janubiy Turkmaniston bronza davri dehqon jamoalari bilan bog'laydi. Bir guruh dehqonchilik madaniyati jamoalari Shimoliy Afgoniston orqali Vaxsh va Qizilsuv daryolari havzalariga kirib kelganlar. Bu zaminning tabiiy-geografik sharoiti va ekologik imkoniyatlari Nomozgoh dehqon jamoalarini yangi sharoitga moslashib, chorvachilik xo'jaligini yuritishga majbur bo'lganliklarini asoslashga qaratadi⁴⁹. Sopolli va Bishkent-Vaxsh madaniyatlari orasida uzviy Genetik aloqa borligi masalasida akademik A.Asqarov ham o'zining aniq qarashlarini bayon etgan⁵⁰.

Ularning izidan borgan tadqiqotchilar L.T.Pyankova va N.M.Vinogradovalar u tadqiqotchilarning qarashlari asosida qandaydir tarixiy haqiqat borligini e'tirof etgan holda, Bishkent va Vaxsh madaniyatlarining kelib chiqish tarixiy ildizlari va

⁴⁸ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. ... -С.116.

⁴⁹ Литвинский Б.А. Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов). Индия в древности. – Москва, 1964. – С. 158; Археологические открытия в Таджикистане за годы советской власти и некоторые проблемы древней истории Средней Азии. ВДИ – №4, 1967. – С. 126-127.

⁵⁰ Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан. 1973. – С. 128; Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Т., Фан. 1977, – С. 115.

ularning yangi sharoitdagi rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olib, Janubiy-G'arbiy Tojikiston hududining qadimgi chorvador qabilalar madaniyatlarini birlashtirib, Bishkent-Vaxsh madaniyati⁵¹, deb atashni taklif qiladilar.

Lekin, na B.A.Litvinskiy, na A.M.Mandelshtam va ularning izdoshlari Bishkent va Vaxsh madaniyatining shakllanishida mahalliy Hisor madaniyati jamoalarining ishtiroki haqida fikr bildirmaydilar. A.Asqarov bu masalada o'z qarashlarini bayon etib, ilk Tulxor yodgorligining antropologiyasi andronovaliklarnikiga, ya'ni protoyevropoidlar va o'rta yer dengizi tiplaridan tubdan farq qilib⁵² Bishkent-Vaxsh madaniyatining shakllanishida mahalliy Hisor jamoalari ham qatnashgan, Degan xulosaga keladi⁵³. Bu fikr zaminida qandaydir tarixiy haqiqat borligi ishonarlidir.

2.2.Turli xil etnik guruhlarning madaniy aloqalari asosida tarkib topgan yodgorliklar va ularning davriy sanasi

Shimoliy Baqtriya hududlarida bronza davrida juda murakkab etnik jarayonlar kechadi. Uning janubiy-g'arbiy tog'li mintaqalarida, ya'ni hozirgi Tojikiston hududlarida mahalliy Bishkent va Vaxsh madaniyati qabilalari istiqomat qilishsa, mintaqaning tog' oralaridagi quyosh tushishiga qulay soy havzalarida Sopolli madaniyatining Mo'lali davri jamoalari qishloqlari qad ko'taradi. Xuddi shu kezlarda, bu hududga, O'rta Osiyoning barcha viloyatlarida yuz berganidek, shimoldan chorvador dasht qabilalari, ya'ni Andronova qabilalari kirib Keladilar. Bu uch etnik guruhlardan ikkitasini, ya'ni Sopolli dehqonchilik madaniyati va Andronova qabilalarining kelib chiqish tarixiy ildizlarida aniqlik bo'lsada, ammo BishKent va Vaxsh madaniyatlari etnik guruhlarining kelib chiqishi masalasida baxsli jihatlar uchraydi.

Ma'lumki, o'tgan asrning 50-yillarida Janubiy Tojikistonning Kofirnigon daryosi quyi havzalarida, Keyinroq Bishkent vodiysida, Vaxsh va Tairsu

⁵¹ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Бактрии (о вахшской и бишкентской культурах) // Культура первобытной эпохи Таджикистана (от мезолита до бронзы). Тез.док. – Душанбе, «Дониш». 1982. – С. 41-65.

⁵² Кияткина Т.П. Черепа эпохи бронзы с территории Юго-западного Таджикистана. Приложение к работе А.М. Мандельштам "Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане". МИА, –№ 145, –Ленинград, 1968. – С. 171-173.

⁵³ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы ... – С. 115.

daryolari o'rta oqimi havzalaridan ko'plab bronza davri yodgorliklari topib o'rganildi. Ularning bir qismi chorvador qabilalar madaniyatiga Tegishli bo'lsa, boshqa bir qismi qadimgi dehqonchilik madaniyatiga tegishlidir. Ana shu turli etnik guruh yodgorliklari orasida Kangurtut makoni alohida diqqatga sazovar yodgorlik bo'lib, uning janubiy-sharqiy qismidagi bronza davri madaniy qatlamlari ostidan Hisor madaniyatining so'nggi, yakunlovchi bosqichiga tegishli arxeologik qatlam borligi aniqlangan⁵⁴. Kangurtut qishloq makonini qazish vaqtida aylana va oval shaklida va har xil o'lcham (0,5x1 m., 1x2 m) dagi tosh qurilmalar ochiladi. Bunday tosh qurilmalar aslida Hisor madaniyatiga xos bo'lib, ular nafaqat Kangurtutda, balki Teguzak⁵⁵ dehqonchilik madaniyati yodgorligida ham uchratilgan.

Bu hududda olib borilgan izlanishlar natijasida, aylana shaklidagi 4ta tosh qurilmalar bir-biriga go'yo Zanjirdek bog'langan holatda joylashgan. Ulardan 2 m uzoqda esa oval shaklida, hajm jihatidan kattaroq qurilmalar uchratilgan⁵⁶. B.A.Litvinskiy va V.A.Ranovlar o'z vaqtida Kangurtut va Teguzak qishloq makonlaridagi bu tosh qurilmalarni shimoldan kirib kelgan Andronova qabilalari qoldirib ketgan "o'choq o'rinlari" bo'lsa kerak, degan xulosaga kelganlar⁵⁷. Biroq, obyekt tadqiqotchisi T.G.Filimonova bu tosh qurilmalar ichida o'choq izlari uchratilmaganligini ta'kidlab, ular qandaydir diniy ma'no kasb etsa kerak, deb izohlaydi. Kangurtutdagi bronza davriga tegishli qatlamdan shunday tosh qurilma ostidan yosh bolaning bosh chanog'i va itning skeleti topilgan. Ular joylashgan chuqurchada ko'pgina hayvon suyaklari va sopol parchalari uchratilganligini qayd qiladi. Kangurtut qishloq makonining neolit qatlamiga tegishli boshqa bir

⁵⁴ Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Изучение Гиссарской культуры и неолитические слои поселения Кангурттут (К проблеме финального этапа гиссарской культуры) // Сб. «Памятники Кангурттута в юго-западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века)». – Москва, ИВ РАН. 2008. – С.24; Виноградова Н.М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 24-25.

⁵⁵ Пьянкова Л.Т. Отчет о работах Вахшского археологического отряда в 1984 г // АРТ. – Вып. XXIV, – Душанбе, 1993. – С. 229.

⁵⁶ Виноградова Н.М. Отчет о работе Южно-Таджикистанского археологического отряда ЮТАЭ на поселении Кангурттут в 1984 г // АРТ –Вып. XXIV. – Душанбе, 1993. –С. 242-253.

⁵⁷ Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Изучение Гиссарской культуры и неолитические слои поселения Кангурттут ... – С. 26.

shunday tosh qurilma ustida suyakdan ishlangan noyob topilmalar va har xil meva danaklari uchratiladi⁵⁸.

Hisor madaniyatining Charmgaron (Kulob vodiysi) makonida shunday tosh qurilma ichi qalin kul qatlamiga to'la bo'lgan. Lo'liko'tal makonida esa, (Hisor madaniyati yodgorligi) shunday tosh qurilma muqaddas sajdagoh bo'lganligi haqida tegishli ishoralar topilgan, ya'ni qurilmaning yuqori qismi to'g'rito'rtburchak shaklidagi tosh g'ov bo'lib, uning o'lchami 60x40 sm, devori ikki qator terilgan tosh balandligida bo'lgan. Bu qurilmaning pastki qismi kul aralash mayin tuproq qatlamidan iborat bo'lib, uning ostidan qalinligi 20 sm dan kam bo'lmagan qoramtir kul qatlami ochilgan. Kul qatlamining diametri 2 metrga boradi, ya'ni tosh qurilma pastga tomon kengayib borgan. Mana shu kul qatlamida ko'plab kuyib parchalangan hayvon suyaklari topilgan. Bu topilmalar ushbu qurilma otashparastlarning muqaddas sajdagohi (svyatilišye)⁵⁹, degan xulosaga kelishga sabab bo'lgan. Kul qatlamining ustki qismida har xil tosh munchoqlar, bir shoda marjon, chaqmoqtoshdan yasalgan qistirma pichoqlar (tosh plastinkalar), pardozlangan tosh boltacha va silliqlangan qayroqcha uchratilgan. Bularning barchasi, haqiqatda bu tosh qurilmalar qandaydir diniy ma'no kasb etishidan dalolat beradi⁶⁰.

Neolit va bronza qatlamlaridan topilgan tosh qurilmalar shakllaridagi o'xshashlik, ularning har ikkisini ham olov bilan bog'liq jihatlari ular o'rtasida qandaydir etnik davomiylik borligiga ishora qiladi. Tojikiston arxeologlarining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda Hisor madaniyatiga tegishli 100 dan ortiq yodgorliklar topib o'rganilganki, ularning sohiblari, ya'ni Hisor madaniyatining so'nggi bosqichi urug' jamoalari izsiz yo'qolib ketmagan bo'lishi kerak. Buning ustiga, Kangurtut qishloq makonining bronza davri qatlamiga tegishli xona poli

⁵⁸ Виноградова Н.М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 27.

⁵⁹ Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Изучение Гиссарской культуры и неолитические слои поселения Кангурттут ... кн.Виноградова Н.М. Памятники Кангурттута в юго-западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века)». Москва, ИВ РАН, 2008. – С. 25-26.

⁶⁰ Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Изучение Гиссарской культуры и неолитические слои поселения Кангурттут ... – С. 26.

ostidan Hisor madaniyatining yakunlovchi bosqichi qatlami topilgan, xuddi shunday holat Teguzak qishloq makonida ham uchratilgan⁶¹.

Shunga o'xshash kuzatuvlarga asoslangan V.A.Ranov va T.G.Filimonovalar Hisor madaniyatining yakunlovchi davriy faoliyatini bronza davrigacha davom etganligini qayd qiladilar⁶². Biroq, hozircha Hisor va Bishkent-Vaxsh madaniyatlarini bir-birlari bilan etnik jihatdan bog'lab turuvchi aniq arxeologik omillar topilmaganligi sababli, Hisor madaniyatini qaysi bir ko'rinishda bronza davrigacha yetib kelgan avlodlari Bishkent va Vaxsh madaniyatlarini shakllanishida qatnashgan bo'lishlari haqida taxmin qilish mumkin xolos.

O'sha davr real hayotidan kelib chiqadigan bo'lsak, Janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlariga bir tomondan Andronova qabilalari, ikkinchi tomondan esa, Sopolli va Dashli jamoalari kirib kelguniga qadar inson oyog'i yetmagan makon sifatida qarash ham xatodir. Chunki, 100 dan ortiq yodgorliklarni qoldirib ketgan Hisor madaniyati jamoalari izsiz yo'qolib ketgan bo'lishi mumkin emas.

Shimoliy Baqtriya hududlaridan topilgan arxeologik ashyoviy dalillar tahliliga ko'ra, bu zaminga shimoliy dasht (Andronova) qabilalarning ilk bor kirib Kelishi Sopolli madaniyatining Ko'zali bosqichida yuz beradi. Sopolli madaniyatining Ko'zali bosqichi davriy sanasi miloddan avvalgi XIV-XIII asrlar bilan belgilangan bo'lib, aynan shu asrlarda Yevroosiyo dashtlaridan chorvador qabilalar O'rta Osiyo ikki daryo oralig'iga kirib keladilar. Amudaryoning quyi havzalarida Ko'kcha 15a manzilgohi, Shimoliy Baqtriyada Jarqo'ton yodgorligi, Andronova qabilalari ilk bor kirib kelgan yodgorliklar ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayd qilingan⁶³. Xuddi shu davrga tegishli eng qadimgi sopollar Jarqo'ton ibodatxonasining supali kutish xonasidan va Jarqo'ton qal'a-qo'rg'onining Ko'zali madaniy qatlamidan topilgan⁶⁴. Shu davrga tegishli yana bir sopol parchasi

⁶¹ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана. – Душанбе, 1989. – С.12.

⁶² Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Изучение Гиссарской культуры и неолитические слои поселения Кангуртут ... – С. 26.; Ўша муаллиф. Истоки, внешние влияния и внутреннее развитие гиссарской культуры // В кн. «Древнейшие культуры Бактрии: среда, развитие, связи». – Душанбе, 1982. – С. 21.

⁶³ Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья. – М., 1977. – С. 145.

⁶⁴ Аскаров А. Степной компонент в оседлых комплексах Бактрии и вопросы его интерпретации. «Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций // –Алма-Ата, 1989. – С. 160-166; Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре // «Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии». – Ташкент, 2010. – С. 110-111.

Jarqo'ton hududidan o'tgan jar ichidan topilgan⁶⁵. Uning sirtidagi naqsh qiyali uchburchak va Meandr^{66*} shaklida bo'lib, sopol naqshiga ko'ra, Andronova madaniyatining Fyodorov bosqichi ilk fazasiga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Jarqo'ton ibodatxonasining muqaddas kulxonasidan ham dashtliklarga Tegishli bir necha sopol parchalari topilgan. Ular orasida yirik sopol gardishi bo'lib, uning naqshlari ilk Fyodorov sopol buyumlarini eslatadi. Shimoliy dasht qabilalarining ilk Fyodorov bosqichini eslatuvchi sopol parchalari Bo'ston VI qabristonida ham uchratilgan⁶⁷.

Shuni ham ta'kidlash joiz-ki, Bo'ston VI arxeologik majmualari orasidan topilgan dasht qabilalariga tegishli ashyoviy dalillar orasida ko'plab Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichiga tegishli⁶⁸ bo'lganlari ham uchraydi. Jarqo'tonda dasht qabilalarining kulolchilik an'analari ta'sirida ishlangan sopol parchalari ham ko'p. Ular garchi kulolchilik charxida yasalgan bo'lsada, sirtiga ishlangan chizma naqshlar, idishlarning shakllari, rangi, loyining tarkibi aynan tozabog'yob idishlarini eslatadi. Jarqo'tonda ular son-sanoqsiz, birgina Bo'ston VI qabristonida 11 ta shunday sopol parchalari uchratilgan. Bo'ston VI da sof tozabog'yob sopolsi ham yetarli darajada topilgan.

Ko'zali davri qabrlaridan topilgan metall buyumlar tarkibida Andronova va Srub madaniyatiga tegishli bir va ikki tig'li dastali mitti pichoqlar va ularning har xil turlari uchratilgan. Bu an'ana Mo'lali va Bo'ston qabrlarida ham davom etgan⁶⁹.

Sopolli madaniyatining qabrlarida shimol chorvadorlariga tegishli taqinchoq va turli xil bezak buyumlarning mitti nusxalari uchratilgan⁷⁰. Ularning aksariyati Mo'lali va Bo'ston qabrlariga tegishli⁷¹ bo'lsada, ammo ular orasida Sopolli madaniyatining aynan Ko'zali bosqichiga tegishli nusxalari ham uchratiladi. Bu

⁶⁵ Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993. – С. 77-78.

⁶⁶ * меандр – мураккаб шаклли нақш.

⁶⁷ Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре // «Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии». – Ташкент, 2010. – С.116-117. Рис 3, 8.

⁶⁸ Аванесова Н.А. Ўша асар. – С. 111 -117.

⁶⁹ Аванесова Н.А. Ўша асар. Рис. 6, 4,7,8; Рис.6, 43-64.

⁷⁰ Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан. Ташкент, 1983, табл. XLV, 17.

⁷¹ Аванесова Н.А. Ўша асар. Рис. 10- 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 12, 13, 17 и т д.

holatlar mil. avv. II-ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab, shimoliy dasht chorvador qabilalarining O'rta Osiyo hududlariga jadal kirib kelganligidan guvohlik beradi. Bu jarayonlar "Avesto" rivoyatlarida zikr qilingan Andronova qabilalarining mil. avv. II-ming yillikning o'rtalaridan janubga qilgan migrasiyalari bilan uzviy bog'liqdir.

Ularning izlari nafaqat Jarqo'ton va Bo'ston yodgorliklarida, balki Janubiy Tojikiston hududlaridan topib o'rganilgan qadimgi qabristonlar Nurek GES hududida, Xisor vodiysidagi Tandiryo'l va Zarkamar⁷² qabristonida, Daxana va Teguzak makonlarida, Tairsuv daryosi havzasidagi Kangurtut qabristoni va makoni hamda Baraki-Kurug makoni, Xo'ja G'oyib yodgorligi (Kulob vodiysi) da o'rganilgan. Ulardan topilgan arxeologik majmualar asosan Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi etnik jarayonlarini xarakterlaydi.

Yuqorida nomlari keltirilgan yodgorliklar Yevroosiyo dasht qabilalarining etnomadaniy izlari yaqqol ko'zga tashlanadigan yodgorliklar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shimoliy Baqtriyaning Janubiy-g'arbiy Tojikiston qismida istiqomat qilgan bronza davri aholisining Dehqonchilik an'analari ushbu mintaqaning g'arbiy hududlari, ya'ni Janubiy O'zbekiston dehqonchilik madaniyati yodgorliklaridan o'ziga xos jihatlari bilan tubdan farq qiladi. Bu albatta har bir joyning tabiiy-geografik sharoiti bilan bog'liqdir. Bular, avvalo uy-joy qurilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu mintaqada qadimgi dehqon jamoalari o'z uy-joylarini tekis maydonlarda emas, balki tog' soylari bo'ylarida, tosh fundament ustiga paxsa bosib uy-joy qurish uslubiga amal qilganlar. Har bir hovli-joy qurilishida quyosh yorug'ligi yetarlicha tushib turishi hisobga olinib, muxandislik bilimlariga amal qilingan. Tog'li voha dehqon jamoalari uy-joy qurilishida Sopollitepa, Jarqo'ton singari yirik aholi manzilgohlaridagi monumental me'morchilik emas, balki qishloq tipidagi dehqon qo'rg'onlarini qurish an'anasiga katta e'tibor qaratganlar.

⁷² Виноградова Н.М. Могильник Тандырийул в Южном Таджикистане // МАИКЦА, – Вып. 18. – Москва, 1991. – С.68-88.

Iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan dehqonchilik madaniyatida ham farqlar bo'lgan. Masalan, mintaqaning (ya'ni Shimoliy Baqtriyaning) g'arbiy hududlarida takroriy sug'orma dehqonchilik rivojlansa, uning sharqiy tomonlarida lalmikor dehqonchilik ustuvor yo'nalish hisoblangan. Bu hudud jamoalarida yaylov chorvachiligi dehqon qo'rg'onlarining mo'may daromad manbai bo'lgan. Uning tarkibida mayda shohli hayvonlarni bilan birga, yirik shohli hayvonlar boqish ham o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan. Ayniqsa, yilqichilik, zotli otlarni ko'paytirish, ular yordamida xo'jalikni tebratish ancha yengil kechishini yaxshi o'zlashtirganlar. Bog'dorchilikning asosi bronza davrida, aynan tog'li voha dehqon jamoalari xo'jaligi asosida tarkib topganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Bu haqda nafaqat arxeologik materiallar (Kangurtut qishloq makoni), balki jonli etnografik materiallar ham guvohlik beradi.

Mozor qurilishi masalasida ham o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, ya'ni qabrlar qurilishida yerning past-balandligi, tuzilishi albatta hisobga olingan. Sopollitepa, Jarqo'ton va Bo'ston qabrlaridan farqli o'laroq, lahadga kirish teshigi g'isht bilan emas, balki tegishli toshlar bilan (Tandiryo'l), guvalaksimon loy bilan (Kangurtut) berkitilgan. Qabrlar orasida kenotaf mozorlar juda ko'p uchraydi. Ular Shimoliy Baqtriyaning g'arbida 40% ga yaqin bo'lsa, Kangurtutda kenotaf mozorlar umumiy qabriston mozorlarini 90% dan ham ko'proq qismini tashkil etadi. Bu holat shimol chorvadorlari bilan mahalliy aholi o'rtasida siyosiy hukmronlik masalasida bo'lib o'tgan ziddiyatlarga ishora qiladi. Aholisi zich Jarqo'tondagi kuchlar nisbatini Kangurtut, Teguzak, Tandiryo'l kabi dehqon jamoalari bilan qiyoslaganda masalaga oydinlik kiritish mumkin.

Dastlab, mahalliy aholi uchun o'zga yurt bosqinchilari, begonalar hisoblangan shimol chorvadorlari joylarda o'zlarining harbiy va siyosiy hukmronliklarini o'rnatgach, mintaqa aholisining xo'jayinlariga, aslzodalariga aylanadilar. Ular ta'sirida shimoliy dasht mintaqa jamoalari bilan janubning

dehqon jamoalari o'rtasida nafaqat iqtisodiy-xo'jalik, balki etnomadaniy aloqalar rivoj topadi⁷³.

Janubiy Tojikiston bronza davri dehqon jamoalari mahalliy Bishkent va Vaxsh madaniyati aholisi bilan o'zaro yaqin munosabatda bo'lganlar. Bu ikki arxeologik madaniyat, ya'ni Bishkent va Vaxsh moddiy madaniyati bir-birlariga juda yaqin, o'xshash, yagona bir madaniyatni tashkil etsalarda, ammo ularning o'rtasida xronologik va mahalliy farqlar ham bo'lgan. Masalan, Bishkent madaniyatining Ilk Tulxor qabristonida ayvonli (yama so spuskom) mozorlarda kremasiya izlari uchraydi. Albatta bu Andronova chorvadorlarining ta'sir mahsulidir. Bunday mozorlarda kulolchilik charxida yasalgan sopollar uchramaydi, ularda topilgan sopollar tarkibi mutlaqo "naqshinkor" sopol buyumlardan iborat. Demak, xali Ilk Tulxor mozorlarining ayvonli qabrlari (yama so spuskom)^{74*} bosqichida Janubiy Tojikiston hududlariga Shimoliy Afg'oniston yoki janubiy O'zbekiston tomondan qadimgi dehqon jamoalari kirib ulgurmagan. Bu davr Sopolli madaniyati davriy xronologiyasida Ko'zali bosqichiga to'g'ri keladi. Biroq, Bishkent-Vaxsh madaniyatining ikkinchi bosqichi arxeologik majmualarida Mo'lali davri kulolchilik mahsulotlari nihoyatda ko'p bo'lib, ayniqsa Vaxsh madaniyati yodgorliklarida buni ko'plab kuzatish mumkin. B.A.Litvinskiy Vaxsh madaniyatida yaylov chorvachiligi lalmi dehqonchilik xo'jaligi bilan birgalikda rivojlanganligini haqli ta'kidlaydi.

Bishkent madaniyatiga tegishli Ilk Tulxor qabristonida bir guruh katakomba tipidagi mozorlar ham bo'lib, ularning arxeologik majmualarida Mo'lali davri sopollari ham uchraydi. Demak, Ilk Tulxor qabristonining katakomba tipidagi mozorlari Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi bilan xronologik jihatdan zamondoshdir.

Shunday qilib, Bishkent-Vaxsh madaniyati xronologik jihatdan ikki bosqichdan iborat bo'lib, uning Bishkent madaniyatiga tegishli Ilk Tulxor

⁷³ Аскарлов А. К вопросу о взаимоотношении населения степей Евразии и Средней Азии в эпоху бронзы // Сб. «Тюркская цивилизация и суверенные Казахстан». – Астана, 2011. – С. – 113.

* Ушбу қабр тузилиши худди Сополли маданияти қабрларининг кўп қисмини ташкил этган (подбой) айвонли – лахат кўринишидаги қабрлардир. Тузилиш жихатидан ушбу қабр тури ҳозирги кунгача етиб келган бўлиб, ўзбек халқининг дафн маросимлари учун характерлидир.

qabristonining ayvonli qabrlari Bishkent madaniyatini ilk bosqichi hisoblansa, Vaxsh madaniyati ikkinchi bosqich davriy sanasini Belgilaydi. Uning xronologik zamondoshi Ilk Tulxor qabristonining katakombasidir.

Janubiy Tojikistonning Tandiryo'l, Qizlar qala, Parxar, Qora pichoq yodgorliklari va Sharshara hamda Arakchindan topilgan mis boltalar, Andronova madaniyati yodgorliklaridan Qumsoy qabristoni, Ilk Tulxor qabristonining kremasiyalik mozorlari bronza davri jamoalarining ilk bosqichi yodgorliklarini tashkil etadi. Janubiy Tojikistonning bronza davri yodgorliklaridan Kangurtut, Daxana, Teguzak qishloq makonlari hamda NuRek qabristonlari, Ilk Tulxor qabristonining katakombasidir, Gelot, Guliston, Obkux, Makoni-mor, Tigrovaya Balka va Toshguzar yodgorliklari esa, xronologik jihatdan Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlari bilan zamondoshdir.

Bu ikkinchi bosqich yodgorliklarini, xuddi Janubiy O'zbekistondagidek, ikki xronologik fazalarga ajratish, Tojikiston misolida qo'shimcha izlanishlarni talab etadi. Chunki, Sopolli madaniyatining Bo'ston bosqichi, bu davrda yuz bergan ijtimoiy va iqtisodiy hamda diniy tasavvurlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq etnomadaniy jarayonlar bo'lib, bu muammoni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni talab etadi.

Darhaqiqat, Janubiy Tojikistonda Kuchuk 1 sopollari Kangurtut va Teguzak qishloq makonlarining ustki qatlamlarida uchraydi. Bu madaniyat sopol buyumlari yana Qizilsu daryosi havzasida topib o'rganilgan qadimgi dehqon jamoalarining yana bir obyekti Karimberdida ham topilgan⁷⁵. Ayniqsa, Karimberdi qishloq makoni so'nggi bronzadan ilk temir davriga o'tishning Mexanizmlari haqida ko'p ma'lumotlar beradi. Bu yodgorlik xronologik jihatdan ham Sopolli madaniyatining Bo'ston bosqichi bilan bir davrni aks ettiradi. Bo'ston bosqichi esa aslida bronzadan ilk Temir (Yaz1, Kuchuk 1, Qizil 1) davriga o'tish bosqichi bo'lib, Shimoliy Baqtriya bronzasi shu bilan yakunlanadi.

⁷⁵ Виноградова Н.М. Работы отряда по изучению памятников эпохи бронзы ЮТАЭ, весной 1979 г // АРТ, – Вып. XIX. – Душанбе, 1986. – С. 80-86; Pyankova L.T. The Settlement of Karimberdy // Information Bulletin, IASCCA, –Вып. 20. 1996. – P. 195.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, Janubiy Tojikiston hududlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar va ularning natijalari tarix sohasiga ko'plab yangiliklarni olib kirdi. Arxeologik tadqiqot natijalari davriy ketma-ketlikda qisqacha bayon etilib, dissertasiya mavzusi yo'nalishi bo'yicha yoritildi. Ushbu hudud yodgorliklarida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning qarashlari yangicha tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mavzuga tegishli bronza davrining turli xil yodgorliklari ochilib, etnomadaniy rivojiga ko'ra, ularni to'rt turkumga bo'lib o'rganishni taqazo etadi. Bular: 1. Qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari; 2. Mahalliy chorvador qabilalar madaniyati yodgorliklari; 3. Ikki madaniy xo'jalik sintezi asosida tarkib topgan yodgorliklar; 4. Shimoliy Baqtriyaga Yevroosiyo dashtlaridan kirib kelgan chorvador qabilalar madaniyati yodgorliklari.

Ochilgan va o'rganilgan yodgorliklarni rayonlashtirish, vodiylar bo'ylab joylashtirish masalalari va ularning nomlanishi masalasida mualliflarning qarashlari turlicha bo'lib, ularni bir tizimga solish ushbu bobda o'z aksini topgan. Yodgorliklarni joylashish o'rnini yoritishda tarixan tarkib topgan tabiiy-geografik toponim nomlari, yodgorliklarning kelib chiqishi va xronologik yoyilishi, suv manbalarining majmua tahlili hisobga olingan.

III-BOB. BRONZA DAVRI JAMOALARINING DAFN MAROSIMLARI VA ULARNI EVOLYUSIYASI

3.1. O'troq Dehqonchilik madaniyati jamoalarida dafn marosimlari va ularning evolyusiyasi

O'lkamizda islom dinidan oldin amalda bo'lgan otashparastlik va zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi ajdodlarimizning o'ziga xos dafn marosimlari kishi e'tiborini jalb etadi. Dafn marosimlari misolida o'sha davr odamlarining umumiy yashash sharoiti, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va diniy mafkurasi qanday bo'lganligini ko'rish mumkin. Jamiyatdagi turli guruhlarining qarashlari va qayg'u-alamlari ularning qabrlarida namoyon bo'lgan diniy marosimlari orqali ifodalanadi.

Bronza davridan e'tiboran zardushtiylik dini chorvadorlar orasida ildiz otib, quyosh eng muqaddas, oliy ibtido sifatida qadrlangan. Bu davr aholisi tog' tepalarida, ko'l bo'ylarida, quyosh yaxshi ko'rinadigan joylarda quyoshga sig'inib, yaylovga boy yerni so'rashgan⁷⁶. Bronza davrida vujudga kelgan o'troq dehqonchilik vohalari aholisining diniy qarashlari dastlabki davrda dasht aholisi diniy qarashlari bilan ko'p jihatdan o'xshash bo'lsada, o'troq aholining keyingi tarixiy taraqqiyotida cho'l aholisidan keskin farq qila boshlaydi, din jamiyatni boshqarishning ustuvor omiliga aylanadi. Tabiiyki o'troq dehqon hayotida yer, suv, havo, olov (quyosh) muhim o'ringa ega. Tabiat unsurlariga e'tiqod qilish dehqonlar jamoasida tobora uyg'unlashib, aniq tizimga kirib boradi⁷⁷.

Qabrlardan topilgan bronza kurakchadan Sopollitepada, Ilk Tulxor qabristonida va Zomonbobo qabristoni topilmalari bilan qiyoslanadi. Murg'ob vohasi, janubiy Tojikistondagi Nurek, Tandiryo'l, Toxirboy-3 va Zarkamar qabristonida o'tkazilgan izlanishlar natijasida topilgan ashyolar, sopol buyumlar Mo'lali bosqichi sopol buyumlaridan farq qilmaydi⁷⁸. Nurek va Tandiryo'lning davriy sanasi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan belgilangan⁷⁹. Toxirboy-3 yodgorligi sopollari ustiga solingan zigzak belgilar Mo'lali sopol

⁷⁶ Эсанов М. Авесто жамиятининг археологик материалларда акс этиши. (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида) // т.ф.н. диссер. Т.: 2007, – Б. 63.

⁷⁷ Эсанов М. Авесто жамиятининг археологик материалларда акс этиши. – Б. 60.

⁷⁸ Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 42-43.

⁷⁹ Литвинский Б.А., Антонова Е.В., Виноградова Н.М., Раскопки могильники Тандирйул // АО, 1975г. – М., 1976. – 567-568; Пьянкова А.Т. Могильник эпохи бронзы Тигровая Балка // СА, 1974, – № 3, – С. 542-543.

idishlarida ham uchraydi. Bundan tashqari, yana Janubiy Turkmanistondan, Eronning Kaytarex qabristoni (mil.avv. II ming yillik oxirlari) sopollariga o'xshashligi aniqlangan. Mo'lali bosqichidan topilgan ikkita silindrlı idish Eron Seistoni – Shaxri-Soxta manzilgohi 413-qabr sopollari bilan qiyoslanadi⁸⁰.

Shunday qilib, Mo'lali bosqichi kulolchilik mahsulotlari O'rta Osiyo, Eron va Afg'oniston yodgorliklari bilan bir davrga tegishli bo'lib, bular Bo'ston-3, Mo'lali, NuRek, Tandiryo'l va Zarkamardir. Ularning sanasi mil.avv. XI – X asrlar bilan belgilangan.

3.2. Chorvador qabilalar madaniyati jamoalarida dafn marosimlari va ularning xususiyatlari

Shimoliy Baqtriyaning bronza davri chorvador qabilalarining yodgorliklari, asosan janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlarida joylashgan. Ularni keng ko'lamda o'rganish ishi A.M.Mandelstam tomonidan 1950 yillarning o'rtalaridan Ilk Tulxor qabristonini ochishdan boshlanadi.

Dafn marosimlarini kuzatishda belgilariga qarab, asosan quyidagi uch kategoriyaga ajratish mumkin. 1) qabr tuzilishi; 2) ko'mish usuli; 3) dafn anjomlarining turlari. Odatda marhum vafot etgandan so'ng, qurbonlik qilinib, xotirlash marosimi⁸¹ o'tkazilgan. Qabristonlar arxeologik jihatdan ham etnografik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, qimmatli ashyoviy dalillarga boy bo'ladi. Bu ashyolar orqali ularning dafn marosimlari va diniy qarashlari qanday bo'lganligini aniqlab olish mumkin. Shu bilan birga marhum va uning hayotlik chog'idagi kasb-hunari haqida tegishli ma'lumotlar beradi⁸².

Ilk Tulxor qabristoni Shimoliy Baqtriyaning Bishkent vodiysida joylashgan bo'lib, ushbu qabristonda olib borilgan qazishmalar natijasida 75 ta qabr ochilgan. Ularning uchtasida marhum tosh yashikka solib dafn etilgan. Qabrlar orasida 9 ta jasad kuydirib so'ng dafn etilgan. 9 ta mozorda juft ko'milgan skeletlar

⁸⁰ Аскарлов А. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977. – С. 96.; Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 42-43.

⁸¹ Назаренко В.А. Классификация погребальных памятников южного Приладожья. - В кн.: Статистико-комбинаторные методы в археологии. – М., Наука, 1970. – С. 191; Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ. –Л., Наука, 1976. – С. 149-150.

⁸² Кореняно В.А. Погребальная обрядность как система.- В кн. : Археология и вопросы атеизма. Грозный: «Чечено-Ингуш». 1977. – С. 6; Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана (по материалам могильника эпохи бронзы «Тигровая Балка») – Душанбе, Дониш. 1989. – С. 15.

uchratilgan. Ilk Tulxor qabristonining 2 ta (№ 51, 58) qabrida srub madaniyatiga xos bronza pichoqlar topilgan.

Ilk Tulxor qabrlari tuzilishiga ko'ra, asosan 4 turga bo'linadi. Ular ayvoni qiya zinali qabrlar; tosh g'ovli yorma qabrlar; katakomba qabrlar; yorma qabrlarning janubiy qismida o'choq sifat chuqurchali qabrlar bo'lib, ularning orasida ko'p qo'llanilgan usul ayvonli qiya zinali qablardir⁸³. Bu qablarga dafn etish uch xil usulda amalga oshirilgan. Bular bir skeletli qabrlar (ular 33 ta), juft skeletli qabrlar (9 ta) va bolalar qabrlari (4 ta) dir.

Qabrlarning asosiy qismini yakka holatda ko'milgan katta yoshdagilarning mozorlari tashkil etadi. Marhum va marhumalar jinsiga qarab, bir xil tartibda, qo'l-oyoqlari bukilgan holatda, erkaklar o'ng tomoni bilan, ayollar chap tomoni bilan ko'milgan.

Ilk Tulxor qabrlarining 3 tasida (№ 56, 57 va 62) qabr o'rasining o'rta qismi to'g'riburchak tarzda bo'lib, uning devorlari plita toshlar bilan mustahkamlangan. Bu qablarda marhum skeleti tosh yashiklarda dafn etilgan. Skeletning bosh chanog'i tosh yashikning sharqiy tomonida, oyoq suyaklari g'arbida joylashgan. Tosh yashikdagi skeletlarning ustki qismi qamish bilan yopilgan. Bu qabrlar erkaklarga ham, ayollarga ham tegishli bo'lib, ularning jinsi bosh chanog'i va toz suyak qoldiqlari orqali aniqlangan⁸⁴. Bunday qablarda dafn bilan bog'liq hеч bir ashyoviy dalillar uchratilmagan. Tosh yashiklar qabrlarning o'rtasida joylashgan bo'lib, A.M.Mandelstam ularning davriy sanasini mil.avv. XI–X asr bilan belgilaydi.

Ilk Tulxor qabristonining 63, 64 – qabrlarida odam skeleti kuydirib dafn etilgan bo'lib, ushbu qablarda Yevroosiyo dasht mintaqalarining chorvador Andronova qabilalarida uchraydigan ramziy belgi svastikaning toshdan terib ishlangan shakli mavjud. Ilk Tulxor qabrlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri Deyarli barcha qablarda kul va ko'mir parchalari uchratiladi. Ushbu qabristonda Deyarli barcha qablarda marhumning bosh qismi atrofiga kul Sepib chiqilgan. Bu

⁸³ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в южном Таджикистане. МИА, – № 145, – Ленинград, Наука. 1968. – С. 53.

⁸⁴ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы ... – С. 55.

ularning olov bilan bog'liq diniy qarashlarining ramziy belgisidir. Bu qabristonda barcha katta yoshli marhum va marhumalar qabrida dafn anjomlari mavjud. Dafn anjomlarining asosiy qismini xuddi Sopolli madaniyati singari sopol idishlar, turli xil taqinchoqlar, uy-ro'zg'or buyumlari, bronza pichoqlar, bronza hanjar, bronza oyna va munchoqlar tashkil etadi.

Umuman, olganda Ilk Tulxor qabristonidagi ayvoni qiya zinali qabrlarda dafn anjomlarini tarkibiga ko'ra, 4 turga ajratish mumkin. Bular – metall buyumlar; toshdan yasalgan buyumlar; sopol buyumlar; zeb-ziynat, pardoz buyumlaridan iborat. Bundan tashqari teridan va kigizdan ishlangan buyumlarning parchalari ham topilgan. Ushbu yodgorlikning katakomba qabrlarida esa dafn anjomlari ko'p emas. Bu ashyolarning asosiy qismini sopol idishlar tashkil etadi. Idishlarning sirti asosan chizma va bosma naqshli shakllardan iborat. Dafn anjomlari orasida ko'mish vaqtida qurbonlik uchun so'yilgan qo'yning suyaklari (oyog'i va qovurg'asi) uchratiladi⁸⁵.

Ilk Tulxor qabristonining to'rtinchi tur qabrlarida kul va kuygan odam suyaklariga to'la mitti o'choqchalar bo'lib, ular erkaklar qabrida to'g'riburchak plitadan yasalgan bo'lsa, ayollarga tegishli qabrlarda aylana shaklidagi o'choqlar uchratiladi⁸⁶. Bunday topilmalarning uchrashi, ularning diniy-falsafiy dunyoqarashidan guvohlik beradi. Erkaklarning qabrida to'g'riburchakli mitti o'choqlarning uchrashi ularning oila posboni, qolaversa oila mulkini, boyligini yaratuvchi, himoyachisi sifatida qaralsa, ayollarning qabridagi aylana mitti o'choqlar, ularning Ona yerga va quyoshga qiyoslanib, shakliy ramzi sifatida qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Bolalarga tegishli bo'lgan qabrlarda sopol idishlar, metall buyumlar va zeb-ziynat buyumlari deyarli topilmagan. Biroq, № 72, 73, 74, 75 qabrlarda tuxumning mayda po'choqlari borligi aniqlangan. Chunki bitta qabrning o'zida 17 tadan 20 tagacha yosh bolalarning jasadi birgalikda dafn etilgan bo'lib, bunday qabrlar qabristonning to'rt joyida uchratiladi.

⁸⁵ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в южном Таджикистане. МИА, – № 145, – Ленинград, Наука. 1968. – С. 61-69.

⁸⁶ Ўша асар. – С. 54.

Yosh bolalarning ham katta yoshdagilarning qabrida ham qizil rang uchraydi. Bu ham ularning e'tiqodi bilan bog'liq udumlardan bo'lib, bu udum so'nggi bronza davri dafn marosimlari uchun xosdir. Chunki qabrlarda qizil rangning uchrashi nafaqat Ilk Tulxor qabristonida, balki Sopolli madaniyatining so'nggi bosqichlari qabrlarida ham ko'plab uchraydi. Dafn anjomlari tarkibini sopol buyumlar, bronzadan ishlangan o'roq, zeb-ziynat buyumlarining parchalari va qo'yning suyaklari tashkil etadi. Dafn anjomlarining ko'p qismi o'roq yoki yarim oy shaklida bo'lib, ular odam bosh chanog'i yaqinida joylashgan bo'lsa, o'roq qo'l panjalari yaqiniga qo'yilgan. Bu yerda temirdan yasalgan buyumlarning borligi aniqlanmagan.

A.M.Mandelshtam tomonidan Ilk Tulxor qabristonida olib borilgan izlanishlar, qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar va qabr tuzilishiga qarab, yodgorlikning davriy sanasi aniqlangan. Bunga ko'ra, Ilk Tulxor qabrlarining ko'p qismini ayvonli qiya zinali qabrlar tashkil etadi. Bu usuldagi qabr tuzilishi Sopolli madaniyatiga xos urf-odatlar xosilasidir. Tadqiqotchilar Ilk Tulxor qabristonidagi ayvonli qiya zinali qabrlarning sanasini mil.avv. XIII-IX asrlar bilan belgilaydi.

Yevroosiyo dasht qabilalarining O'rta Osiyo hududlariga kirib Kelishi arxeologik manbalar tahliliga ko'ra, mil.avv. XIV-XIII asrlarda yuz bergan. Andronova chorvador qabilalarining janubga migrasiyasi oqibatlari Shimoliy Baqtriya bronza davri jamoalarining dafn marosimlarida o'z aksini topgan. Mayitni yoqib dafn etilishi Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlarida ham kuzatiladi. Bu holat Andronova qabilalarining janubga migrasiyasi bilan bog'liq ekanligi inobatga olinsa, ularni Baqtriya hududiga mil.avv. XIII – IX asrlar davomida to'xtovsiz kirib Kelganligi ko'zga tashlanadi.

Ilk Tulxor qabristoni bilan bir vaqtda Aruktau yodgorligi ham o'rganilgan bo'lib, u qabrlar tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'linadi. 1) tosh devorli qabrlar; 2) tosh qo'rg'on ostidagi yorma qabrlardan iboratdir. Bu yerdan 13 ta mozor-qo'rg'onlar o'rganilgan⁸⁷. Birinchi turdagi tosh qo'rg'on aylana yoki to'g'riburchak shaklida bo'lgan. Izlanishlar davomida Aruktau qabristoni yakka holatda dafn etish uchun

⁸⁷ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы – С. 46-52.

mo'ljallanganligi aniqlangan Qabrda skelet o'ng tomonga yonboshlatilgan holda, boshi sharq yoki shimoliy-sharqqa qaratilgan.

Ikkinchi turdagi qo'rg'onlar faqat bitta holatda uchratilgan. Ushbu qo'rg'on to'g'riburchak shaklida bo'lib, g'arb bilan sharqqa qaratib yo'naltirilgan. Bu yerda qiz bolaning skeleti chap yonboshi bilan qo'l-oyoqlari bukilgan holatda qo'yilgan bo'lib, boshi sharqqa qaratilgan. Oyoqlari tizzasigacha bukilgan, qo'llari ham bukilgan bo'lib, panjalari bosh suyagining yuz qismi qarshisida joylashgan. Dafn anjomlari tarkibini sopol idishlar va pardozi buyumlari (bronza sirg'a va braslet) tashkil etadi. Umuman olganda, Aruktau qabrlaridagi dafn anjomlarini faqat sopol buyumlar emas, metall buyumlardan ishlangan idishlarning parchalari ham uchraydi.

Tairsu daryosining o'rta oqimidagi Vaxsh vodiysi va Dangara platosi hududida bir necha dehqonchilik manzilgohlari va qabristonlari aniqlangan. Bularga Kangurtut, Daxana, Teguzak, Baraki Kurug va Nurek qabristonlari kiradi. Bu yodgorliklarda bir necha yillardan buyon Janubiy Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi izlanishlar olib bormoqdalar. Tojikiston hududida bronza davri yodgorliklarini o'rganish bo'yicha yetuk mutaxassislar N.Vinogradova va L.T.Pyankovalar ushbu hududda izlanishlarni davom ettiradilar. N.Vinogradova tomonidan Kangurtut va Tandiryo'l qabristonlari L.T.Pyankova tomonidan Tigrovaya Balka qabristoni o'rganildi.

Kangurtut qabristonida 1300 m² ga yaqin joydan 91 ta qabr ochib o'rganilgan. Qabrlarning asosiy qismi qabristonning markaziy va sharqiy qismida joylashgan. Qabrning ustki qismi va kirish teshigi toshlar bilan berkitilgan. Qabrlarni tuzilishiga qarab 3 turga ajratish mumkin. Bular 1) yorma; 2) ayvonli lahad; 3) katakomba qabrlardir⁸⁸. Qabrlarning lahadga kirish TESHIGI aylana yoki oval shaklida bo'lib, qabr kaMerasida ba'zan toshlar, ba'zan sopol parchalari va ko'mir izlari uchraydi⁸⁹. Bu yerda o'rganilgan barcha qabrlarda deyarli odam suyaklari uchratilmagan ya'ni Kangurtutdagi 91 ta qabrdan 3 ta ingumasiya (№

⁸⁸ Ўша асар. – С. 67.

⁸⁹ Виноградова Н.М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – С. 41-42.

53, 65, 74), qolganlari kenotaf qabrlarni tashkil etadi. Faqat, ikkita qabrda hayvon suyaklari borligi aniqlangan (№ 23, 53 qabr). Qabr kamerasida odam skeleti qo'yilishi zarur bo'lgan joylarda odam yoki hayvon haykalchalari qo'yilgan bo'lib (73-qabr), ularning atrofiga bir nechtdan sopol idishlar qo'yilgan. Bulardan 53-qabrdagi odam suyaklari yaxshi saqlanib qolgan. Qabrlarda 1 tadan 12 tagacha sopol idishlar, bronzadan mitti buyumlar (pichoq, oynacha va boshqalar), urchuqtoshlar uchratiladi. Bundan tashqari Andronova qabilalariga tegishli sopol parchalari ham topilgan. Bu qabristonda kremasiya izlari uchratilmagan.

Kangurttut qabrlari ashyoviy dalillari va tuzilishiga ko'ra, Surxondaryo vohasidagi qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari – Sopollitepa, Jarqo'ton, Bo'ston, Shimoliy Afg'onistonning Dashli⁹⁰, Janubiy Turkmanistonning Sumbar (Xlopin, 1983), Murg'ob vohasi yodgorliklari – Gonur, Auchun tepa, Toxirboy 3, To'g'oloq 1, To'g'oloq 21⁹¹ yodgorliklari bilan yaqin – urug'dosh bo'lgan bo'lishi mumkin. Dafn kamerasining kirish qismi juda ko'plarida maxsus pishgan va xom g'ishtlar hamda toshlar bilan yopilgan. Bu qabr tuzilishi Janubiy-g'arbiy Tojikistondagi katakomba va ayvonli lahad qabrlarga tegishlidir. Kangurttutdagi ayvonli lahad qabrlarining topilmalari Jarqo'ton 4 qabristoni materiallari bilan Deyarli bir ekanligi aniqlangan⁹².

Kangurttutdagi № 65, 74 qabrlardan bosh suyak qoldiqlari, qo'l va oyoqning uzun suyaklari topilgan. Qabrlarda qo'y va bo'rining suyaklari uchraydi. Dafn anjomlari esa, Parxar, Qizlar qal'a va Nurek qabristonlari bilan bir xil ekanligi aniqlangan.

Tandiryo'l qabristoni Tojikistonning Tursunzoda tumanidagi Negmad-Bacha II qishlog'ida joylashgan. Qabristonning umumiy maydoni 300x500 m bo'lib, bu yerdan 34 ta qabr ochib o'rganilgan. O'rganilgan qabrlarning 2 tasigina kenotaf qabrdir. Qabrning ustki qismi va kirish teshigi toshlar bilan berkitilgan. Qabrlar tuzilishiga ko'ra, 4 ta turga bo'linadi. Bular: 1) yorma qabrlar; 2) qiya

⁹⁰ Сарианиди В.И. Исследования памятников Даштлинского оазиса. “Древняя Бактрия”. – Москва, 1976. – С. 77.; Ўша муаллиф. Древние земледельцы Афганистана. – М., 1977.

⁹¹ Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. М-Л., 1959; Сарианиди В.И. В поисках страны Маргуш. – М., 1993.

⁹² Виноградова Н. М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 67.

yorma; 3) ayvonli lahad; 4) katakomba qabrlardir. Ikkinchi turdagi qabrlar faqat Tandiryo'l qabristoni uchun xarakterlidir⁹³. Shunday bo'lishiga qaramay qabrlarning asosiy qismini ayvonli lahad va katakomba qabrlar tashkil etadi. Marhumning dafn etish usuli odatdagidek, yon tomoni bilan oyoq-qo'llari bukilgan holatda ko'milgan. Ularning boshi shimoliy-sharqqa qaratilgan. Odam suyaklari antropologik jihatdan yaxshi saqlangan.

Qabrlarda 1 tadan 9 tagacha sopol idishlar, mitti mehnat qurollari topilgan. Ular bilan birga, sirg'a va popuk, bezaklar ham topilgan. Qabrlardan topilgan barcha ashyoviy dalillar Shimoliy Baqtriyaning dehqonchilik madaniyati yodgorligi – Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi topilmalariga o'xshashligi bilan xarakterlanadi⁹⁴. Bu qabristonda nafaqat idishlar, bronzadan ishlangan mitti pichoqlar, turli xil bezaklar, qimmatbaho toshdan munchoq, Terrakota urchuqtoshlar uchratilgan⁹⁵. Bunday dafn etish usuli Shimoliy Baqtriyaning – Jarqo'ton 4a, Bo'ston 6 qabrlari bilan bir xilligi aniqlangan. Tandiryo'l qabristonida Kenotaf mozorlar ham uchratilib, ularda loydan yasalgan odam haykalchalari, haykalchalar atrofida sopol idishlar va boshqa buyumlar topilgan. Qabrdagi odam suyaklarini antropologik jihatdan o'rgangan T.P.Kiyatkina ularni yevropoid irqining sharqiy o'rta yer dengizi tipiga oid ekanligini aytadi.

Nurek qabristoni Vaxsh daryosining o'ng qirg'og'ida Amudaryo bilan tutash qismida joylashgan. Bu qabristonda beshta mozor ochilib, ularning 3 tasi (№ 1-3) adirlik Tepasida, qolgan 2 tasi (№ 4-5) Vaxsh daryosining ikkinchi terrasasining pastrog'ida joylashgan. Bu yerdagi 1,3 va 4-qabrlardagi ashyoviy dalillar qabristonni bronza davriga tegishli ekanligini asoslaydi⁹⁶. Qabrlar yomon saqlanganligi sababli ularning tuzilishini aniqlash imkoni bo'lmagan. Qabrdagi odam suyaklari (bosh chanoq va qo'l suyaklari) tosh plita bilan yopib qo'yilgan. Marhum skeleti g'ujanak holatda uchratiladi. Ba'zi qabrlarda suyak qoldiqlari

⁹³ Ўша жойда.

⁹⁴ Виноградова Н.М. Исследования контактов земледельческого и степного населения на юге Средней Азии (Южный Таджикистан) в эпоху поздней бронзы // «Археология, палеоэкология и палеодемография Евразии». Сборник статей, – Москва, изд. ГЕОС. 2000. – С. 89.

⁹⁵ Виноградова Н. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 68.

⁹⁶ Виноградова Н. М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С- 62.

topilmagan, ammo ularda sopol idishlar uchraydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Nurek qabristonida xuddi Kangurtut qabrlari singari Kenotaf qabrlar ham bo'lgan.

Qabrlarda 1 tadan to 5 tagacha dafn anjomlari uchratilib, bular asosan sopol vazalar, tog'orachalar, tuvak shaklidagi idishlar, shuningdek munchoqlar, oltin uzuk va bronza pichoqlardan iborat. Qabrlarda dashtliklarga xos pichoq ham topilgan⁹⁷. Nurek qabristonidan topilgan ashyoviy buyumlar ushbu qabristonni bronza davriga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Idishlar orasidagi ingichka oyoqli vazalar, bolta ko'rinishidagi devorga ilib qo'yishga mo'ljallangan buyumlar, idishlarning ustki qismidagi angobning uchrashi, idishlarning bo'g'zidagi Vertikal tarzida o'tkazilgan chiziqlar Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi uchun xarakterli bo'lib, aynan bunday idishlar Tandiryo'l, Jarqo'ton-4S, Bo'ston 6 qabristonining Mo'lali bosqichi qabrlariga xosdir. Topilmalarning boshqa qismi Sopolli madaniyatining Bo'ston bosqichi qabrlari, Kangurtut, Jarqo'ton – 4S, Bo'ston 6 qabrlari uchun xosdir. Nurek qabristonidagi 3-qabrdan topilgan noyob topilma – tilla uzukni hyech bir topilmaga qiyoslab bo'lmaydi. Bronza pichoqning qoldiqlari esa dasht tipida bo'lib, Kangurtut topilmalariga juda ham yaqin. Shundan kelib chiqib, ushbu qabristonni davriy jihatdan Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlari orasi bilan Belgilash mumkin⁹⁸.

So'nggi bronza davrida Janubiy-g'arbiy Tojikiston hududiga Andronova madaniyati qabilalari kirib kelishi kuzatiladi. Ularning izlari Qumsoy - Xisor vodiysida, Kirov nomli savxozdagi manzilgoh, Kurgan-Tyuba (Qo'rg'on tepa)da, Xavolin rayonidagi Tuyun qabristonida, Sharqiy Pomir hududlarida uchratiladi⁹⁹.

Qumsoy qabristoni Xisor vodiysining tog' bo'yi hududlarida joylashgan. Qumsoy chap tomondagi tepaliklarda, Tursunzoda hududida joylashgan. Bu hududda arxeologik izlanishlar Janubiy Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2 yil davomida 1987-1988 yillarda olib borilgan¹⁰⁰. Qazish ishlari natijasida 21 ta qabr va 1 ta Kenotaf qabr ochib o'rganilgan.

⁹⁷ Виноградова Н.М. Исследования контактов земледельческого и степного населения ... – С. 96–97.

⁹⁸ Виноградова Н. М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 62.

⁹⁹ Виноградова Н. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 77.

¹⁰⁰ Виноградова Н.М., Пьянкова Л.Т. Могильник Кумсай в Южном Таджикистане // Информ. Бюллетень МАИКЦА, – Вып. 17, – Москва, 1990. – С. 98.

Qabrlar asosan ayvonli-lahad tuzilishida bo'lib, ularning kirish chuqurchasi katta toshlar bilan Berkutilgan. O'rganilgan qabrlar orasida katta yoshdagi erkak kishilar qabri mutlaqo uchramaydi. 35-45 yoshlardagi ayol kishiga tegishli faqat 1 ta (№13) qabr topilgan. Qabrlarning bir qismida 18-22 yoshli yigit-qizlarga tegishli skeletlar bo'lsa, qolgan ko'p qismi chaqaloqlarga, yosh bolalarga tegishli qabrlarligi aniqlangan.

Qabrlarda jasadning joylashish holati bronza davri odatiga ko'ra, jinsiga qarab, o'ng yoki chap tomonga qo'l-oyoqlari bukilgan holatda yonboshlatib ko'milgan. Marhumning atrofida turli xil idishlar, qizlarnikida bronzadan munchoqlar topilgan. Biroq, chaqaloqlarga va yosh bolalarga tegishli bo'lgan qabrlar deyarli dafn anjomlarisiz ko'milgan¹⁰¹. Bunday holat Shimoliy Baqtriyaning bronza davri dehqonchilik madaniyati sohiblarida ham kuzatiladi. Bu esa, chorvador va dehqonchilik madaniyatlari o'rtasida o'zaro aloqalar bo'lganligidan dalolat beradi. Qabrlarda olov va ko'mir izlari topilmagan. Dafn etilganlarni antropologik jihatdan o'rgangan T.P.Kiyatkina jasadlar yevropoid irqining sharqiy o'rta yer dengizi tipiga tegishli ekanligini aniqlaydi¹⁰².

Qabrlardan topilgan idishlar qizg'ish-jigarrang tusda, ularning ustki qismiga yupqa qilib oq angob berilgan. Bunday xildagi idishlar Sopolli madaniyatining Mo'lali, Bo'ston 6 va Jarqo'ton 4s qabristonlarida, hamda Janubiy Tojikistondagi dehqonchilik madaniyati yodgorligi – Tandiryo'l qabristonidan ham topilgan. Qumsoy qabristoni sopol buyumlari ikki xil an'anaviy asosda tayyorlangan. Biri dasht Andronova yodgorliklari idishlarini eslatsa, ikkinchisi dehqonchilik madaniyati an'alarini eslatadi.

Qumsoy qabristonining arxeologik topilmalari Zarafshon vodiysidagi Andronova madaniyati yodgorliklari turkumiga kiruvchi Dashti-Qozi qabristoni¹⁰³ buyumlarini eslatadi. Qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar, naqshli idishlar

¹⁰¹ Виноградова Н. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 77.

¹⁰² Кияткина Т.П. Черепа эпохи бронзы с территории Юго-западного Таджикистана. Приложение к работе А.М. Мандельштам "Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане". МИА, –№ 145, –Ленинград, 1968. – С. 171-173.

¹⁰³ Исаков А.И., Потемкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане // СА, – № 1, 1989. – С. 145.

marhumning boshi yaqinida, bronzadan ishlangan sirg'a, oyna, bilakuzuk va munchoqlar marhuma skeletining tegishli qismlaridan topilgan. Bu ashyolar Zarafshon vodiysi Andronova yodgorliklari – Mo'minobod va Gujayli yodgorliklari uchun ham xarakterlidir.

Qumsoydan topilgan metall buyumlari ustida I.G.Ravich izlanish olib borib, bronza buyumlari, ayniqsa bronzadan ishlangan bilakuzuk va mo'nchoqlar Andronova tipidagi yodgorliklar : Chaka (Lev, 1966, ris. 38, 9), Mo'minobod (Asqarov, 1969, ris 2, 11, 12), Ko'kcha 3, 16¹⁰⁴ va Dashti-Qozi (Potemkina, 2001, s.63, ris. 1,6) topilmalariga o'xshashligi aniqlangan.

Janubiy Tojikiston chorvador qabilalarning dafn etish usuli Sopolli dehqonchilik madaniyatining Jarqo'ton¹⁰⁵, Bo'ston 6¹⁰⁶ qabristoni dafn marosimlariga o'xshaydi. Ulardan farqi, faqatgina katakomba qabrlarning kirish qismi pishgan g'isht bilan yopilganligida¹⁰⁷. Aynan bunday qabr tuzilishi Xisor vodiysidagi Tandiryo'l qabrlarinikiga yaqin ekanligi bilan ajralib turadi. Qumsoy madaniyati materiallari, sopol buyumlari dehqonchilik madaniyati yodgorligi – Sopolli madaniyati Mo'lali bosqichi davri bilan bir ekanligini ko'rsatadi¹⁰⁸.

Demak, Qumsoy qabristoni bronza davri dasht chorvador qabilalar madaniyatini o'rganishda noyob yodgorlik hisoblanadi. Qabr tuzilishi, ko'mish usuli, dafn anjomlariga ko'ra, ikkita bir-biriga yaqin bo'lgan an'anaga: shimoliy qismi Zarafshon vohasi (Chaka, Mo'minobod, Dashti-Qozi) – Andronova doirasida, janubiy qism materiallari Sopolli – Dashtli dehqonchilik madaniyatlari bilan qo'shilib ketgan, deyish mumkin.

Andronova qabilalariga Tegishli ikkinchi qabriston **Tuyun qabristoni** bo'lib, bu qabriston 1997 yil Xovalin tumani yaqinidagi Tuyun qishlog'idan topilgan. Qizilsu daryosi yonida dastlab, Andronova madaniyati qabristoni ochiladi. Ushbu qabrlarning tuzilishi katakomba shaklida bo'lib, lahadga kirish yo'lagi (1x0,8 m, chuqurligi 0,6 m) tosh bilan berkitilgan. Dromosning janubiy-sharqiy qismida dafn

¹⁰⁴ Итина М.А. История степных племен южного Приаралья. – М., 1977. – С. 134.

¹⁰⁵ Аскаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Ташкент, 1983.

¹⁰⁶ Avanesova N.A. Spatbronzezeitliche Kulturkontakte in der Baktrischen ... // – С. 147-178.

¹⁰⁷ Виноградова Н. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 81.

¹⁰⁸ Виноградова Н.М. Памятники Кангурттута в юго-западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века)». Москва, ИВ РАН, 2008.

kamerasi (1,6 x 1 m) joylashgan. Qabrning ichida kichik yoshdagi bolaning skeleti chap tomonga yonboshlatilib, yuzi qabrning kirish qismiga qaratilgan holda ko'milgan. Bu qabrdan topilgan ashyoviy dalillar – sopol idishlarning tuzilishi, sirtidagi Belgili naqshlar Andronova qabilalarining Fedorov bosqichi sopol buyumlari uchun xarakterlidir. Bronza buyumlar esa Qumsoy qabristoni materiallariga xosdir¹⁰⁹. Bu qabriston ham xuddi Qumsoy qabristoni singari Andronova madaniyatining Zarafshon variantini eslatadi. Zarafshon vodiysi dasht qabilalarining dafn marosimlari hamda antropologik tipi Qozog'iston va Janubiy Sibir hududidagi Andronovaliklarnikidan farq qiladi. O'rta Osiyo dasht qabilalari antropologik jihatdan ko'proq janubiy hududlarning dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalarga yaqinroqdir.

Janubiy Tojikiston Andronova madaniyatiga tegishli keyingi manzilgoh Kirov nomli sovxoz hududidan topilgan¹¹⁰. Yodgorlik Vaxsh daryosining yuqori oqimida Kurgan-Tyubadan 12 km uzoqlikda joylashgan. Uning umumiy maydoni 130 kv.m bo'lib, bu yerdan 6 ta qabr ochilgan. Qabrlardan topilgan sopol idishlar sirti taroqsimon chekma naqshlardan iborat bo'lib, bu xildagi idishlar Andronova madaniyatining fedorov bosqichiga mansubdir. Idishlarning ustki qismida uchburchak, cho'zinchoq egri chiziqli naqshlar ham borki, bunday naqshli idishlar Kangurtut manzilgohidagi Andronova madaniyati idishlarida ham uchraydi. Manzilgohning yuqori qatlamidan topilgan sopol parchalari Yaz I madaniyati sopol buyumlarini eslatadi. Ushbu topilmalardan kelib chiqib, manzilgoh davriy jihatdan ikkiga, ya'ni uning quyi gorizonti bronza davri, yuqori gorizonti Yaz I davriga tegishliligi aniqlangan¹¹¹.

Chorvador dasht qabilalarining moddiy madaniyat izlari **Sharqiy Pomirdan** ham topilgan. Arxeologik materiallar shuni ko'rsatadiki, Andronova madaniyati qabilalarining sharqqa, Sharqiy Pomirgacha ko'chish harakati kuzatiladi. Qabrlar qo'rg'on tuzilishida bo'lib, qo'rg'on ostida toshdan g'ov ochilgan, g'ov ichida esa

¹⁰⁹ Виноградова Н. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 83-84.

¹¹⁰ Восточный Туркестан и средняя Азия в системе культур древнего и средновекового Востока. – М. 1986. Наука. – С.134.

¹¹¹ Виноградова Н. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 84.

marhum tosh qutida yotganligi kuzatilgan. Ammo qo'rg'on o'g'irlangan. Ushbu qo'rg'ondagi skelet yosh bolaga tegishli bo'lib, u juda yomon saqlangan. Tosh g'ovning ichki qismida otning bosh chanog'i, markazida gulhan o'rni, hayvon suyaklari hamda naqshli sopol parchalari topilgan. Bu sopol parchalaridan biri taroqsimon bosma (chekma) naqshlar bilan bezalgan bo'lib, u Andronova madaniyati yodgorliklarining fedorov tipi uchun xarakterlidir¹¹².

Andronova madaniyati yodgorliklarida olib borilgan izlanishlarning guvohlik Berishicha, bu qabila Xisor vodiysidan Sharqiy Pomirgacha bo'lgan hududlarga Kelib joylashgan. Chorvador aholi bilan dehqonlar an'anasi qo'shilgan Andronova madaniyati qabristonlari (Qumsoy, Tuyun) dafn etish inshootining tuzilishi, ko'mish holati va dafn anjomlariga ko'ra, ular bir biriga o'xshash ikki etnik jamoalar an'anasi: shimoliy - Andronova madaniyati va janubiy- mahalliy tub joyli dehqonchilik an'analari qo'shilgan deyish mumkin¹¹³.

Janubiy-g'arbiy Tojikistonda istiqomat qilgan Andronova madaniyatining quyi davriy Chegarasi Qumsoy qabristonining "dehqonchilik" sopol buyumlari bilan belgilanadi. Bu idishlar dehqonchilik madaniyati yodgorligi bo'lgan Mo'lali bosqichi uchun xarakterli bo'lib, uning davriy sanasi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan chegaralanadi. Yuqori davriy Chegarasi esa, Yaz I idishlariga xos bo'lgan sopol buyumlar (Kirov nomli savxozdan topilgan) ning topilishi bilan belgilanadi.

1961 – 1967 yillarda qadimgi Vaxsh va Qizilsu daryolari atrofida Janubiy Tojikiston arxeologik guruhi B.A.Litvinskiy rahbarligida so'nggi bronza davriga tegishli 5 ta yodgorlikda (Vaxsh, Tigrovaya Balka, Oyko'l, Jarko'l va Makoni mor qabristonlari) izlanishlar olib boradi¹¹⁴. Ular Vaxsh daryosining o'ng qirg'og'ida, Kobadian tumani hududida joylashgan. Vaxsh madaniyatini o'rganishda bu hududdan topilgan qadimgi qabristonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qabrlar tuzilishiga ko'ra, ustki qismiga aylana shaklida toshlar terilgan. Qo'rg'onlar

¹¹² Кузмина Е.Е. Откуда пришли индоарии? – М., 1994. – С. 409.

¹¹³ Виноградова Н. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. ... – С. 84.

¹¹⁴ Литвинский Б.А. Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов). Индия в древности. – Москва, 1964. – С.

halqasimon tarzda bir-biriga yaqin joylashgan.

Vaxsh I qabristonining umumiy maydoni 3,6 ga bo'lib, bu yerda 50 ta qo'rg'on borligi aniqlangan. Ulardan 40 tasida arxeologik qazishmalar olib borilgan. Oyko'l qabristoni 5,75 ga bo'lib, unda 52 ta qo'rg'on borligi aniqlangan va ularning barchasida qazish ishlari olib borilgan. Jarko'l qabristoni maydoni 8,5 ga. Bu joyda 80 ta qo'rg'on aniqlangan bo'lib, ularning 13 tasidagina qazish ishlari olib borilgan. Makonimor qabristoni maydoni 6 ga bo'lib, bu joydagi 40 ta qo'rg'ondan 12 tasida izlanishlar olib borilgan¹¹⁵.

Vaxsh madaniyati qabristonlarida marhumni dafn etish usuli odatdagidek, jasadlar qo'l-oyoqlari bukilgan holatda, yonboshlatib ko'milgan. Ba'zi-ba'zi hollarda marhum orqasi bilan yoki qorni bilan yotganlik holatlar ham uchratilgan¹¹⁶.

Qabrlarning asosiy qismini kenotaf mozarlar tashkil qiladi. Ularda dafn marosimlari bilan bog'liq ashyoviy dalillar deyarli uchramaydi. Ba'zilarida bittadan idish uchratilib, ularning sirti naqshlangan. Vaxsh madaniyati yodgorligining davriy sanasi mil.avv. XII-X asrlar bilan belgilangan. Qabrlar tuzilishiga ko'ra, ayvonli – lahad tuzilishida bo'lib, qabrning tag qismiga tosh Terib chiqilgan¹¹⁷. Bu yerda o'rganilgan yodgorliklarning ichida eng yirigi Tigrovaya Balka qabristoni bo'lib, uning maydoni 54,4 ga teng. Mana shu maydonda 130 ta qo'rg'on aniqlangan.

L.T.Pyankova Tigrovaya Balkada 116 ta qo'rg'onda arxeologik qazishmalar olib borgan bo'lib, shulardan 82 tasida jasadlar kuzatildi. Qolganlari Kenotaf qabrlar ekanligi aniqlangan. Qabrning dromos qismi turli xil ko'rinishga ega bo'lib, ular – oval, to'g'riburchak (ko'p qismni tashkil etadi), uchburchak, T-shaklida va yoysimon ko'rinishda bo'lgan¹¹⁸. Tigrovaya Balka qabrlari o'xshashligi jihatidan Vaxsh madaniyatining Oyko'l va Vaxsh I qabrlariga juda

¹¹⁵ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана (по материалам могильника эпохи бронзы «Тигровая Балка») – Душанбе, Дониш, 1989. – С.14.

¹¹⁶ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана – С. 26.

¹¹⁷ Ионесов В. Становление и развитие раннеклассовых отношений // Дис...канд.ист.наук. – Самарканд. 1990. – С. 35.

¹¹⁸ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана ... 1989. – С. 18.

yaqin¹¹⁹. Qo'rg'onning ustki ko'rinishi, umumiy tuzilishi ham ushbu tadqiqotchi tomonidan o'rganilgan.

Tigrovaya Balka qabristonida ochilgan mozor-qo'rg'onlardan 29,2% ni kenotaf qabrlar tashkil etadi. Kenotaf qabrlarning tashqi ko'rinishi, o'lchami marhum dafn etilgan qablardan farq qilmaydi. Bu qabriston kenotaf qabrlarning ko'pligi bilan Vaxsh madaniyatining boshqa yodgorliklaridan ajralib turadi.

Vaxsh va Bishkent madaniyatida chorvador dasht qabilalari sopol buyumlari topilgan. Andronova sopol parchalari aynan Ilk Tulxor, Aruktau, Makoni-Mor, Oyko'l, Jarqo'l, Tigrovaya Balka qabristonlarida hamda Teguzak, Kangurtut manzilgohlarida uchratiladi¹²⁰. Vaxsh madaniyati bilan Sopolli madaniyatining so'nggi bosqichlaridagi sopol buyumlar bu ikki madaniyat o'rtasida o'zaro aloqalar bo'lganligini ko'rsatadi. Vaxsh madaniyati qabrlari Sopolli madaniyati qabrlaridan farq qilib, tashqi tuzilishiga ko'ra, tosh qo'rg'on ko'rinishida bo'lib, bundagi holat ularning hududiy joylashish o'rnidan kelib chiqqan. Antropolog T.Q.Xodjayov bu madaniyat aholisining antropologik tipi Qadimgi Baqtriya hududidagi o'troq Dehqonchilik yodgorliklariga xos qiyofada bo'lganligini ta'kidlaydi.

Vaxsh madaniyati qabristonlaridan topilgan sopol buyumlari Shimoliy Afg'onistonning so'nggi bronza davri yodgorliklari topilmalariga o'xshab ketadi. Bishkent madaniyati sopol buyumlari esa, Qadimgi Baqtriyaning Janubiy O'zbekiston hududidagi Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi sopol buyumlariga o'xshaydi.

Vaxsh va Bishkent madaniyatiga tegishli katakomba qabrlar tashqi ko'rinish jihatidan bir –biridan ajralib turadi. Barcha Vaxsh qabrlarining tashqi ko'rinishi aylana shaklida tosh qo'rg'on tarzida bo'lgan. Bunday ko'rinishdagi qabr tuzilishi Ilk Tulxor qabrlarida uchramaydi. Ilk Tulxor qabristonida faqat katakomba qabrlarning ustki qismi tosh uyumi bilan qoplangan. Asosan aylana shaklida tosh bilan qoplangan qabrlar Aruktau qabristonida mavjud bo'lsada, uning ostidagi

¹¹⁹ Ўша асар. – С. 24.

¹²⁰ Мандельштам А.М. Могильник Ариктау в Бишкентской долине (Южный Таджикистан) // КСИИМК. № 76. –М., 1959. – С. 77.

mozorlar yorma qabrlardir¹²¹.

Yuqorida tavsif etilgan materiallar mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida shimoliy dasht chorvadorlarining Shimoliy Baqtriya hududlariga kirib Kelishi va mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlari haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlarning ilmiy tahlili Shimoliy Baqtriya hududlarida so'nggi bronza davrida, ro'y bergan tarixiy jarayonlar va turli etnik guruhlarining dafn marosimlari bilan bog'liq diniy va dunyoviy qarashlar majmuasi haqida tasavvurlar hosil qilishga yordam Beradi.

Ilk Tulxor qabristonining deyarli barcha o'rganilgan qabrlarida olov bilan bog'liq holatlar (kul, ko'mir, altar va boshqalar) uchratilgan. Eng muhimi qabrlarning ikkitasida (№ 63-64) svastika belgisining toshdan ishlangan shakli topilgan. Bu qabr Andronova qabilalariga tegishli ekanligiga ishoradir. Vaxsh madaniyati yodgorliklari ichida eng yirik yodgorlik Tigrovaya Balka qabristoni bo'lib, uning qabrlarida ham olov bilan bog'liq ramzlar uchraydi.

Qabrlarda qizil rangning tez-tez uchrashi bronza davri jamoalarining umumiy e'tiqodi bilan bog'liq ramziy ma'no bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Ularning diniy e'tiqodi dafn marosimlarida aks etib, ular aynan zardushtiylik dinining oddiy ko'rinishdagi, ilk ildizlari, asosi bronza davri bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bronza davrining o'rtalarida zardushtiylikning izlari aks etar ekan, Demak bu davr e'tiqodini ilk zardushtiylik paydo bo'la boshlagan davr, deb atash imkonini beradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mil.avv. II ming yillikning so'nggi choragida Shimoliy Baqtriya hududi dehqon va chorvador qabilalarning o'zaro aloqa maydoniga aylanganki, bular ularning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib ketishiga asos bo'lgan.

Ajdodlarimiz mehnati tufayli hayvont olamidan ajrab, odam sifatida shakllanish davrining so'nggi bosqichlarini o'tayotgan kezlarda (qadimgi tosh davrining mustye bosqichi), yashash uchun kurash og'irliklari, tabiat kuchlari

¹²¹ Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Бактрии (о вахшской и бешкентской культурах). В.кн. Культура первобытной эпохи Таджикистана (от мезолита до бронзы) – Душанбе, Дониш. 1982. – С. 42.

oldida ojizligini Seza boshlaydilar. Shuning uchun o'zlarining yashash mintaqalarida tirikchilik manbai bo'lgan turli xil tabiat ne'matlariga topina boshlaydi, ular tufayli yashashda davom etayotganligi haqidagi ilk tasavvurida ularni ilohiylashtira boshlaydilar. O'sha davrlarda tabiatning ularga tortiq etgan mo'jizasi turli hayvonlar va yovvoyi o'simliklar bo'lgan. Shu boisdan bo'lsa Kerak, odamzod ilk diniy qarashlarida hayvonlar va daraxtlarga e'tiqod qilish Kelib chiqadi. Bu totemizm nomi bilan fanda o'z o'rnini topgan.

Zamonlar o'tishi bilan ilk ajdodlarimiz rostmana odam, aqlli, ongli odam (fan tilida Xomo sapiens-sapiens, diniy qarashlarda Odam Ato va Momo Havo) bo'lib shakllandi. Kishilik tarixida odamzodni jamoa bo'lib yashash, ya'ni urug'chilik davri boshlanadi. Dastlab, urug'ni onalar boshqarib, ular urug'ning davomiyligini ta'minlovchi, odamzodga jon ato etuvchi iloh sifatida tasavvur qilina boshlandi. Bu qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichida yuz beradi. Shunday qilib, ajdodlar ruhiga sig'inish, onalarni ilohiylashtirish fan tilida animizm, fetishizm, ajdodlar ruhiga sig'inish, deb atalgan diniy qarashlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Bu ibtidoiy diniy qarashlar arxeologik obyektlarda, ajdodlarimizdan qolgan dafn marosimlarida yaxshi kuzatiladi. Ular arxeologik obyektlarda ramziy ma'noda qoya toshlarga, hayvon suyaklariga chizilgan turli xil shakllar, haykalcha qiyofasidagi ramziy ilohlar ko'rinishida uchraydi.

Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirishda mezolit (o'rta tosh davri), Neolit (yangi tosh davri) va eneolit (mis-tosh davri) bosqichlarida odamlarning diniy tasavvurlar haqidagi qarashlari kengayadi. Bular urug' jamoalarining kichik-kichik jamoaviy tarmoqlarga, jamoaviy guruhlariga bo'linishi bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, bu jarayonlar davomida har bir jamoa guruhining o'ziga xos xarakTeri va fazilatlari shakllanib borgan. Bunday totemistik diniy tasavvurlar fanda zoolatrik totemlar, ya'ni o'zbekona iborada urug' jamoasining "laqabi"(totemiy belgisi) sifatida hayotiy an'anaga aylangan.

Bunday kultlar dinning norasmiy, markazlashmagan ko'rinishlaridan biri bo'lib, tarixiy shakl-shamoyiliga ko'ra, oilaviy yoki urug' kultlari va qabila

kultlaridan iborat bo'lgan bo'lishi mumkin. Ular eneolit va bronza davriga tegishli tosh munchoqlar va tumorlarda, oilaviy, jamoaviy muhrlarda o'z aksini topgan va bizgacha yetib kelgan. Bunday diniy qarashlarning ayrim ko'rinishlari xalq orasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, yosh bolaning qo'lga, bosh kiyimiga ko'zmunchoq, kiyimlariga tumor taqib qo'yiladi-ki, bular bolani turli xil ziyondan, nazardan asraydi, deyiladi.

Ibtidoiy diniy qarashlarning ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladigan ajdodlar ruhiga sig'inish alohida diniy qarash sifatida, fanda o'z isbotini topgan. U tarixiy taraqqiyotning ilk patriarxal urug'chilik bosqichiga xos¹²²dir. "Olamdan o'tgan ota-bobolar va urug' boshliqlarining ruhi avlodlarni balo-qazolardan asraydi", degan tushuncha, ushbu diniy qarashning mazmunini tashkil etgan. "Ruh doimo tirik, u odamzodni qo'llab-quvvatlaydi va unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi", degan tushuncha ushbu ibodat turining asosi hisoblangan¹²³.

Janubiy Tojikiston hududida ko'p yillar izlanish olib borgan A.M.Mandelshtam bronza davriga oid ilk Tulxor qabristonidagi erkak kishi dafn etilgan bir qabrdan to'rtburchak shakldagi altarni, ayol kishiga tegishli bir qabrdan aylana shaklidagi altarni uchratadi¹²⁴. Odatda doira shakli bu ona yer va quyoshning ramziy ma'nodagi ko'rinishini ifodalasa, to'rtburchak shakli o'sha davr nuqtai-nazaridan qaraganda tabiatning to'rt muqaddas unsuri – quyosh - yer yuziga issiqlik energiya yetkazuvchi, uning yerdagi parchasi sifatida olov, yer – unumdor tuproq, musaffo havo, suv – obi hayotning bir e'tiqod buyumida mujassamlashganligi bo'lishi mumkin. Agar bu masalaga falsafiy nuqtai-nazardan yondashilsa, ayol kishi qabridan dumaloq shakldagi altarning topilishi ona yer va energiya, issiqlik, ilqlik taftini ulashuvchi quyoshga yaqin qiyoslab e'zozlangan, erkaklar esa yerning, toza havoning, suvning muqaddasligini, sofliqini saqllovchi, qo'riqchisi sifatida qaralgan bo'lishi mumkin.

¹²² Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида). Т.ф.д. дис. автореф. – Самарқанд, 2009. – С. 25.

¹²³ Токаров С.А. Ранние формы религии. –М., Наука, 1990. – С. 255.

¹²⁴ Ўша асар. – С. 8-46.

XULOSA

Eneolit davridan boshlab ibtidoiy ajdodlarimizni mis va qalayi, qo'rg'oshin va mishyak konlari qiziqtirib kelgan. Ular aralashmasidan olingan bronza xom ashyosi esa mehnat va harbiy qurollar yasashda juda asqotgan. Metall xom ashyosiga bo'lgan talab har ikki xo'jalik sohiblari uchun ham hova va suvdek zarur edi. Shu bois bo'lsa kerak, chorvadorlarning dashti qazida paydo bo'lishi, o'troq dehqonchilik madaniyati sohiblari sarazmliklarning Zarafshon vodiysining bosh qismiga, Panjikentdan 50 km chamasida sharqda Yori, Konchach, Jilou konlariga yaqin joylashishi bejis emas edi.

Dastlab bu konlar sarazmliklar tomonidan o'zlashtirildi, so'ngra bronza davriga kelganda unga egalik qilish jangari chorvador qabilalar qo'lga o'tdi. Qadimgi bobo dehqonlarning Sarazmda qolishining istiqboli qolmaydi. Sarazmda qaynoq shahar hayoti keskin qisqarib, uning 100 gektarga yaqin maydoni harobaga aylanadi. Endi shaharsozlik madaniyati bilan bog'liq yangidan-yangi qadimgi shahar markazlari Zarafshon vodiysining o'rta va quyi havzalariga ko'chadi. Masalan, Zarafshon daryosining chap sohilidan topilgan To'qayli manzilgohini ko'rsatish mumkin. Afsuski, To'qaylida olib borilgan arxeologik izlanishlar Sarazm kabi katta natijalar bilan yakunlanmadi. Ammo To'qaylidan topilgan ruda eritish qo'rasining topilishi bu zaminda metallurgiya ustaxonalarining tadrijiy rivojidan (faoliyatidan) guvohlik beradi.

Zarafshon vodiysida ilk urbanistik jarayonlar, arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, Sarazm qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllangan (Sarazm II) davridan boshlandi. Sarazmdan topilgan ijtimoiy va diniy xarakterdagi monumental binolar, tog' sanoati bilan bog'liq metallurgiya hunarmandchiligi, toshdan turli mehnat va harbiy qurollar yasashni san'at darajasiga ko'tarilishi; otashparastlik ibodatxonalar va ular bilan bog'liq diniy ritual ashyolarining ishlab chiqarishning yuksak darajada bo'lishi; Sarazm metallurglari ishlab chiqargan metall xomashyosining mintaqalararo savdoga chiqarilishi; Jom orqali dasht savdo karvon yo'lining tarkib topishi va boshqalar vodiya yuz bergan va jadal rivojlanib borayotgan urbanistik jarayonlardan guvohlik beradi.

Biroq miloddan avvalgi II-ming yillikning o'rtalaridan arxeologik va yozma (Avesto) manbalarning tahliliga ko'ra, chorvador oriy qabilalarining shimoliy-sharqdan janubga migrasiyasi munosabati bilan O'rta Osiyoda, jumladan, Zarafshon vodiysi ibtidoiy jamoalari hayotida tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Butun O'rta Osiyo, jumladan, Zarafshon vodiysida o'zga etnik guruhlarining kirib kelishi bilan, ularga xos dashtlilar madaniyati paydo bo'ldi. Ularning vodiya kirib kelishi Sarazmda gullab-yashnab borayotgan ilk shaharsozlik madaniyatini inqirozga olib keldi. Shimoliy Baqtriya hududlari bronza davridan boshlab turli etnik guruhlarining uchrashuv maskani, iqtisodiy xo'jalik va etnomadaniy aloqalar maydoniga aylangan. Shu boisdan, tadqiqotchilar, jumladan B.A. Litvinskiy, L. T.Pyankova va I.M.Vinogradovlar Bishkent-Vaxsh madaniyatlari aholisining kelib chiqish tarixiy ildizlarini Sopolli madaniyati etnosiga borib taqalishini to'g'ri qayd qiladilar¹²⁵.

Ammo, chorvador Bishkent-Vaxsh madaniyatlari aholisining etnik tarkibi mutlaqo Sopolli madaniyati aholisining tabiiy-geografik sharoit tufayli an'anaviy xo'jalik yuritishdan voz kechib, tog' hududi muhitiga xos o'troq chorvadorlarga aylangan jamoalardan iborat emas. Chunki, ularning tarkibida, bu joylarda, qadimdan yashab kelayotgan tub joyli etnik qatlami mavjudligini unutmaslik kerak. Aslida, Bishkent-Vaxsh madaniyatlari aholisi tarkibida ana shu mahalliy aholi ham qatnashgan bo'lib, ular qatorida Sopolli madaniyati jamoalari ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Bu haqda antropologik materiallar va ayniqsa Vaxsh madaniyatiga xos kulolchilik mahsulotlarining qiyosiy tipologiyasi guvohlik beradi¹²⁶.

Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmi davomida bu o'lkaga yana bir o'zga etnik guruhlar kirib keladi.

Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichida bu o'zga etnik guruhlar Shimoliy Baqtriyaning mahalliy o'troq dehqonchilik madaniyati qishloqlari va chorvador

¹²⁵ Ўша жойда.

¹²⁶ Виноградова Н.М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004.

qabilalari jamoalari ichigacha kirib boradilar. Bu holat Jarqo'ton, Teguzak, Kangurt-tut, Karimberdi, Ilk Tulxor, Ilk Aruktau, Tigrovaya Balka, Vaxsh, Makoni-mor, BishKent I,II,III, Oyko'l, Jarko'l qabristonlari misolida yaxshi o'rganilgan. shuningdek, Shimoliy Baqtriya xos tabiiy-geografik muhit mintaqa etnik guruhlar xo'jalik shakllarining rivojlanish yo'llarini oldindan belgilab bergan.

Arxeologik izlanishlar geografiyasiga ko'ra, Shimoliy Baqtriyaning bronza davri yodgorliklari tog' oldi hududlari va tog'lar oralig'idagi vohalarda, daryo havzalarida topilgan. Hududiy jihatdan ular hozirgi kunda ikkita mustaqil suveren davlatlar –O'zbekiston va Tojikiston hududlariga to'g'ri keladi. Janubiy O'zbekiston hududiy doirasida miloddan avvalgi II – ming yillikda katta va kichik hududiy doiradagi dehqonchilik vohalari shakllangan. Bu vohalarda o'troq dehqonchilik madaniyatiga oid qator yodgorliklar borligi aniqlangan va o'rganilgan. Shimoliy Baqtriyaning Tojikiston qismida esa, asosan bronza davrining chorvador qabilalari yashagan hamda uning Janubiy O'zbekistonga Chegaradosh hududlarida, bronza davrining so'nggi bosqichlarida qadimgi dehqonchilik qabilalari yashaganliklari haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar ham topilgan. Bular Kangurtut, Teguzak, Tandiryo'l yodgorliklaridir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida Shimoliy Baqtriya hududlarida turli iqtisodiy xo'jalik va etnik guruhlariga tegishli qabilalar yashab, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy manfaatdorlik asosida qurilgan etnomadaniy aloqalar hozirgi zamon o'zbek va tojik xalqlarining shakllanishida dastlabki tarixiy ildiz, etnik asos bo'lib xizmat qilgan. Bu tarixiy muhit jarayonlari ularning antropologik va etnografik qiyofasida, kundalik turmush tarzida, shodiyona kunlari va motam marosimlari bilan bog'liq urf-odat va udumlarida o'z aksini topgan. Bu holatlar ulardan bizgacha yetib kelgan moddiy madaniyatda o'z aksini topgan.. Biroq, bu boy tarixiy madaniyat va ma'naviyat sarchashmasi obyektiv davriy uyg'unlikda, xronologik ketma-ketlikda o'rganilsagina ilmiy ahamiyat kasb etadi. Aks holda moddiy va ma'naviy manba birlamchilik xususiyatini yo'qotadi.

Shimoliy Baqtriyaning xilma-xil geografik iqlim sharoiti bu o'lka aholisining moddiy madaniyatini shakllanishida katta rol o'ynaganligi hisobga olinib, etnik guruhlarining asosi aniqlandi. Chunki, Shimoliy Baqtriya bronza davrida turli etnik guruhlarining uchrashuv maskani, etnomadaniy aloqalar maydoni bo'lib, bu omillar ularning tilida, etnik qiyofasida o'z aksini topgan.

Qadimda Shimoliy Baqtriya hududini tashkil etgan turkiy va forsiy xalqlari hamisha yonma-yon yashab kelganlar. Bu ikki xalqning o'tmishi davomida diniy e'tiqod va shu bilan bog'liq udumlarga alohida e'tibor berib kelinganligi, bugungi kunda moddiy madaniyatda ham o'z aksini topmoqda. Diniy e'tiqodlarning shakllanishi va rivojlanishida esa, ularning dafn marosimlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu tadqiqot ishi orqali bronza davrida Shimoliy Baqtriyaning o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarning dafn marosimlari va diniy e'tiqodlari hamda bu ikki xo'jalik sohiblarining o'zaro munosabatlari tahlil etildi. Dafn marosimlarining qanchalik mukammal bo'lishi, dafn marosimlariga e'tibor qaratilishi u xalqda insonning qadri ulug'ligidan dalolat beradi. Bunday holatni biz bugungi kunimizda ham ko'rishimiz mumkin.

- Shimoliy Baqtriyaning hududiy tarkibini tashkil etgan janubiy O'zbekiston va janubiy-g'arbiy Tojikiston o'z iqlim sharoitiga ko'ra, bir tomonda dehqonchilik, ikkinchi tomonda esa, chorvachilikning rivojlanishiga olib keldi. Dehqon va chorvador jamoalar o'rtasida o'zaro ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar, bu aloqalarni moddiy madaniyatda aks etishi Jarqo'ton, Teguzak, Qangurtut, Tandiryo'l, Bo'ston kabi yodgorliklarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlari so'nggi bronza davrida turli etnik guruhlarining o'zaro iqtisodiy, siyosiy hamda etnomadaniy aloqalar markazi bo'lgan.

- Shimoliy Baqtriyaning Tojikiston hududidagi bronza davri yodgorliklari tog' va adirliklarda joylashganligi sababli, mazkur hududda yaylov chorvachiligi va lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik rivoj topadi. Hatto ularning uy-joy qurilishida ham farq borligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Dehqonchilik vohalarida asosan xom g'ishtlar asosida qishloq-qo'rg'onlar qurishga katta e'tibor

berilgan bo'lsa, chorvadorlar tog'li hududlarda yashaganliklari sababli, ularning uy-joy qurilishida toshdan foydalanishga katta e'tibor berilgan. Xatto, uy-joylarning fundamentiga tosh yotqizilgan.

- Janubiy-g'arbiy Tojikistonning bronza davri Beshkent va Vaxsh madaniyatlari bir-biriga juda yaqin, o'xshash, yagona bir madaniyatni tashkil qilsalarda, ular o'rtasida qandaydir farqlar borligini ko'rish mumkin. Beshkent madaniyatiga kiruvchi Ranniy Tulxar qabristonida kremasiya qilingan qabrlar uchraydi. Bu albatta chorvador Andronova qabilalari moddiy madaniyatdagi ta'sirining kuzatilishidir. Bu jarayon Mo'lali bosqichidan avvalroq yuz bergan. Sopolli madaniyatining Bishkent va Vaxsh madaniyatlariga ta'siri Mo'lali bosqichi davrida yuz berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

I. PREZIDENT I. KARIMOV ASARLARI VA RASMIY HujjatlAR

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. // Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Том-7. Т.: “Ўзбекистон”. 1999. – Б. 132-155.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, Маънавият. 2010. – Б.
3. Аванесова Н.А. Новое в погребальном обряде сапаллинской культуры. «Археологические вести». № 4, Спб, 1995.
1. Аванесова Н.А., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике сапаллинской культуры. (по материалам исследования могильника Бустан VI). ИМКУ, вып.30. Самарканд, 1999. – С. 27-36.
2. Аванесова Н.А. Проблеме относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры. // Ўзбекистон археологияси, № 1, Тошкент, 2010. – С. 110-143.
3. Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре // «Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии». Ташкент, 2010. –С. 107-133.
4. Алексеев В.П., Ходжайов Т., Халилов Х. Население верховьев Амударьи по данным палеоантропологии. –Т., “Фан”. 1984.
5. Алёшкин В.А. Социальная структура и погребальный обряд древнеземледельческих обществ. – Ленинград, Наука. 1986. – С.
6. Аскарлов А. Памятники андроновской культуры в низовьях Зарафшана // ИМКУ. –Вып 3. – Ташкент, 1962. – С. 28-41.
7. Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан. 1973. – С. 172.
8. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977. – С. 232.
9. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Раскопки могильника Джаркутан (Результаты работ весной 1975 г.). // ИМКУ, Ташкент, 1978. вып.14, – С. 19-43.
10. Аскарлов А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. Ташкент, 1983. – С. 87.

11. Асқаров А, Жұрақулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё. Самарқанд. 1984. – Б. 100.
12. Асқаров А, Ширинов Т., Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд – 1993. – С. 162.
13. Бойс М. Зороастрийцы: верования и обычаи. – М.: 1987.
14. Васильев Л.С. История религий востока.
15. Виноградова Н.М., Пьянкова Л.Т. Работы в Гиссарской долине в 1977 г.. АРТ, вып. XVII (1977), 1983.
16. Виноградова Н.М. Работы отряда по изучению памятников эпохи бронзы ЮТАЭ, весной 1979 г // АРТ, –Вып. XIX. –Душанбе, 1986. – С. 80-86;
17. Виноградова Н.М. Новые памятники эпохи бронзы на территории Южного Таджикистана . «Центральная Азия . Новые памятники письменности и искусства». Москва, 1987.
18. Виноградова Н.М., Пьянкова Л.Т. Могильник Кумсай в Южном Таджикистане. Информ. Бюллетень МАИКЦА, вып. 17, Москва, 1990.
19. Виноградова Н.М. Могильник Тандыр-йул в Южном Таджикистане. МАИКЦА, вып. 18, Москва, 1991. – С. 68-88.
20. Виноградова Н.М. Отчет о работе Южно-Таджикистанского археологического отряда ЮТАЭ на поселении Кангурттут в 1984 г // АРТ – Вып. XXIV. – Душанбе, 1993. –С. 242-253.
21. Виноградова Н.М. Первое поселение бешкентско-вахшской культуры на юге Таджикистане. «Древность историческое значение и специфика источника» Тез. Докл. Конференции, посвященной памяти Э.Р. Грантовского. М., 1996. – С. 32-34.
22. Виноградова Н.М. Исследования контактов земледельческого и степного населения на юге Средней Азии (Южный Таджикистан) в эпоху поздней бронзы. «Археология, палеоэкология и палеодемография Евразии. Москва, 2000.

- 23.Виноградова Н.М. Поселение эпохи поздней бронзы-Ташгузар в Южном Таджикистане. «Древние цивилизации Евразии». М., 2001. – С. 138-149.
- 24.Виноградова Н.М., Гётцельт, Пьянкова Л.Т. Археологическая разведка в бассейне реки Кызылсу (Южный Таджикистан) РА, Москва, 2003. – С. 101-114.
- 25.Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. М.,2004.
- 26.Виноградова Н.М. Памятники Кангурттута в юго-западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века)». Москва, ИВ РАН, 2008.
- 27.Восточный Туркестан и средняя Азия в системе культур древнего и средновекового Востока.М. 1986. «Наука».
- 28.Дьяконов М.М. Работы Кафирниганского отряда. ТСТАЭ, т.1. МИА 15, 1950.
- 29.Ионесов В. Новые исследования могильника эпохи бронзы Джаркутан IVa. ИМКУ, вып. 22. Ташкент, 1988.
- 30.Ионесов В.. Некоторые данные о могильнике Джаркутан- 4в. ИМКУ вып.24. Ташкент, Фан. 1990. – С. 8-18.
- 31.Исаков А.И., Потемкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане. – СА, № 1, 1989.
- 32.Исаков. А. Саразм – новый раннеземледельческий памятник Средней Азии // СА, №6, 1986.
- 33.Исаков А. Саразм. (К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зеравшанской долины). Душанбе, 1991.
- 34.История народов Узбекистана, том 1, Тошкент, 1950.
- 35.История таджикского народа. Том 1, Душанбе, 1998.
- 36.Кияткина Т.П. Черепка эпохи бронзы с территории Юго-западного Таджикистана. Приложение к работе А.М. Мандельштам “Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане». МИА, –№ 145, –Ленинград, 1968. – С. 171-173.

37. Кузьмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века в Средней Азии. Москва, 1966.
38. Литвинский Б.А. О топорах эпохи бронзы из Таджикистана. Изв. АН Тадж. ССР. Отдел общественных наук № 1. Душанбе, 1961.
39. Литвинский Б.А. Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов). Индия в древности. Москва, 1964.
40. Литвинский Б.А., Соловьев В.С. Стоянка степной бронзы а Южном Таджикистане. «Успехи Среднеазиатской археологии, вып. 1, Ленинград, 1972. – С. 42-53.
41. Литвинский Б.А. Антонова Е.В., Виноградова Н.М. Раскопки могильника Тандыр-йул. АО (1975), 1976.
42. Литвинский Б.А., Зеймаль Т.И., Медведская И.Н. Отчет о работах Южнотаджикистанской археологической экспедиции в 1973. АРТ, вып. XIII (1973). Душанбе, 1977. – С. 76-92.
43. Мандельштам А.М. Могильник Ариктау в Бишкентской долине (Южный Таджикистан) // КСИИМК. № 76. –М., 1959. – С. 73-82.
44. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. МИА, № 145, Ленинград, 1968.
45. Массон В.М Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА, №73; М.-Л., 1959.
46. Массон В.М.. Экономика и социальный строй древних обществ. Ленинград, 1976.
47. Мейтерчиян М. Погребальные обряды зороастрийцев. М., 1999.
48. Пьянкова А.Т. Могильник эпохи бронзы Тигровая Балка // СА, 1974, – № 3, – С. 542-543.
49. Пьянкова Л.Т. Нурекский могильник эпохи бронзы. АО (1974). Москва, 1975.
50. Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Бактрии (о вахшской и бишкентской культурах) // Культура первобытной эпохи Таджикистана (от мезолита до бронзы). Тез.док. – Душанбе, «Дониш». 1982. – С. 41-65.

- 51.Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана (по материалам могильника эпохи бронзы «Тигровая Балка»). Душанбе, 1989.
- 52.Пьянкова Л.Т. Работа Байпазинского отряда на поселении бронзового века Дахана (1985). АРТ, вып. 25. Душанбе, 1994.
- 53.Ранов В.А. Шугнау – многослойная стоянка в верховьях реки Яхсу (раскопки 1969-1970 гг.) // Археологические работы в Таджикистане вып. 10. –Душанбе, 1973.
- Ранов В.А., Несмянов С.А Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. –Душанбе. 1973.
- 54.Ранов В.А. Коробкова Г.Ф. Туткаул-многослойное поселение гиссарской культуры в Южном Таджикистане. СА, № 2, 1971.
- 55.Ранов В.А. Истоки, внешние влияния и внутреннее развитие гиссарской культуры // В кн. «Древнейшие культуры Бактрии: среда, развитие, связи». – Душанбе, 1982. – С. 21.
- 56.Рахманов У. Керамическое производство эпохи бронзы Южного Узбекистана. – Самарканд, 1987.
- 57.Ртвеладзе Э.В. Бронзовый кинжал из Вахшувара. СА № 1, 1981.
- 58.Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. Ташкент, «Фан», 1987.
- 59.Сарианиди В.И. Исследования памятников Дашлинского оазиса. «Древняя Бактрия» Москва, 1976.
- 60.Сарианиди В.И.. Древние земледельцы Афганистана. Москва, 1977.
- 61.Сарианиди В.И..Раскопки монументальных зданий на Дашли 3. «Древняя Бактрия». М., 1984.
- 62.Сарианиди В.И.. И здесь говорил Заратуштра. Москва, 1992.
- 63.Сарианиди В.И.. В поисках страны Маргуш. Москва, 1993.
- 64.Сарианиди В.И.. Гонур-Депе: город царей и богов.. Ашхабад, 2006.
- 65.Тереножкин А.И. Археологические находки в Таджикистане. КСИИМК, вып. XX., Москва, 1948.
- 66.Ширинов Т. Орудия производства и оружие эпохи бронзы Среднеазиатского междуречья. Т.: «Фан», 1986

67. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Т.: 2004.
68. Эсанов М. Бронза даврида Қадимги Бақтрия ва Марғиёна аҳолисининг зоолатрик диний қарашлари // Ўзбекистон моддий маданият ёзма манбаларда. – Т., Фан. – Б. 92-97.
69. Эшов.Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. Тошкент. “Маърифат”, 2009.